VOLUME 4, ISSUE 2

Scientific Journal

ERUS

Educational Research in Universal Sciences

Exact and Natural Sciences

ISSN: 2181-3515

ERUS.UZ

2025/2

ISSN 2181-3515
VOLUME 4 ISSUE 2
JANUARY 2025

https://erus.uz/

EDUCATIONAL RESEARCH IN UNIVERSAL SCIENCES
VOLUME 4, ISSUE 2, JANUARY, 2025

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14782613

UDK: 634,13:581.19

OREGANO-AS OZIQ-OVQAT QO‘SHILMASINI OG‘RIQ QOLDIRUVCHI VA O‘TKIR EKSSUDATIV YALLIG‘LANISH FAOLLIGINI BAHOLASH NATIJALARI

Asqarov Ibrohimjon Rahmonovich
Andijon davlat universiteti Kimyo kafedrasi professor,
ORCID ID -0000-0003-1625-0330

Mamatqulova Surayyo Abdusamatovna
Farg‘ona davlat universiteti Kimyo kafedrasi mudiri, k.f.f.d. (PhD)
ORCID ID - 0000-0003-0363-9427

Jumanova Barno G‘aniyevna
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o‘qituvchisi
ORCID ID-0009-0002-7446-4353

Annotatsiya: *Ushbu maqolada OREGANO-AS oziq ovqat qo‘shilmasini og‘riq qoldiruvchi va o‘tkir ekssudativ yallig‘lanish faolligi baxolash natijalariga bag‘ishlangan. Bunda sichqonlarda sirka kislota keltirib chiqargan og‘riq reaksiyalariga ta’sirini baholash va ekssudativ yallig‘lanishga qarshi faolligi baxolangan.*

Kalit so‘zlar: *OREGANO-AS tibbiyot, oziq-ovqat, farmatsevtika, yalig‘lanish, ekssudativ, sirka kislota, sichqonlar.*

RESULTS OF ASSESSMENT OF OREGANO-AS FOOD ADDITION ON PAIN RELIEF AND ACUTE EXSUDATIVE INFLAMMATION ACTIVITY

Abstract*. In this article, the results of the evaluation of the analgesic and acute exudative inflammatory activity of OREGANO-AS food additive are presented. In this, the effects of the food additive OREGANO-AS on the pain reactions induced by acetic acid in mice were evaluated and its anti-exudative inflammatory activity was evaluated.*

Ключевые слова*: OREGANO-AS лекарство, продукты питания, фармацевтика, воспаление, экссудативное, уксусная кислота, мыши.*

РЕЗУЛЬТАТЫ ОЦЕНКИ ОРЕГАНО- AS КАК ПИЩЕВОЙ ДОБАВКИ ДЛЯ ОКАЗАНИЯ БОЛИ И ОСТРОЙ ЭКСУДАТИВНОЙ ВОСПАЛИТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ

Аннотация. *В данной статье представлены результаты оценки анальгетической и острой экссудативной воспалительной активности пищевой добавки ОРЕГАНО-АС. При этом оценивалось влияние пищевой добавки ОРЕГАНО-АС на болевые реакции, индуцированные уксусной кислотой, у мышей. и оценивали его противоэкссудативную воспалительную активность.*

Key words: *OREGANO-AS medicine, food, pharmaceuticals, inflammation, exudative, acetic acid, mice.*

Kirish: Hozirgi vaqtda ushbu o‘simlik ekstraktining xususiyatlarini o‘rganish, yallig‘lanish kabi ba’zi kasalliklarni davolash va oldini olish uchun muqobil usullarni o‘rganishga qiziqish ortib borayotganligi sababli ortib borayotgan qiziqish uyg‘otmoqda. Shu sababli, oreganoning xususiyatlarini dorivor maqsadlarda o‘rganishga qiziqish katta.

Shunday qilib, Oregano (oregano) biologik faol tabiiy manba ekanligini aytish mumkin. Oregano fitokimyoviy jihatdan potentsial alternativ vosita sifatida saratonga qarshi, yallig‘lanishga qarshi, antioksidant va mikroblarga qarshi faolligi tufayli bir qator kasalliklarni muqobil davolash sifatida istiqbolli roli tufayli alohida qiziqish uyg‘otadi. Ushbu o‘simlikning mikroblarga qarshi faolligini efir moyi va uning asosiy tarkibiy qismlari tashkil etadi.

Adabiyyotlar tahlili va metodlari: Zamonaviy tibbiyotda *salvia officinalis* o‘simligi o‘zining yallig‘lanishga va mikroblarga qarshi samarali ta’siri bilan qadrlanadi. Ayniqsa bu o‘simlikdan tayyorlangan dori vositalari og‘iz bo‘shlig‘i va tomoq yallig‘lanishlari kasalliklarini davolashda juda yaxshi natijalarni beradi. Qadim vaqtlardan o‘tkir va surunkali tonzillit, o‘tkir respirator infektsiyalar, stomatit kabi kasalliklarni davolashda *salvia officinalis* dan damlama ko‘rinishida foydalanilgan [1; 165-b, 2; 153-b].

Bundan tashqari ushbu o‘simlikning barcha turlari dezinfektsiyalovchi, balg‘am ko‘chiruvchi, yaralarni davolovchi, biriktiruvchi, yumshatuvchi, antiseptik va qon to‘xtatuvchi xususiyatlarni ham namoyon etishi aniqlangan. Shuning uchun *salvia officinalis* barglari va boshqa tarkibiy qismlaridan Yevropa va MDH mamlakatlarida tabiiy dorivor vosita sifatida foydalaniladi [3; 390-b].

Zamonaviy tibbiyotda *salvia officinalis* o‘simligi o‘zining yallig‘lanishga va mikroblarga qarshi samarali ta’siri bilan qadrlanadi. Ayniqsa bu o‘simlikdan tayyorlangan dori vositalari og‘iz bo‘shlig‘i va tomoq yallig‘lanishlari kasalliklarini davolashda juda yaxshi natijalarni beradi. Qadim vaqtlardan o‘tkir va surunkali tonzillit, o‘tkir respirator infektsiyalar, stomatit kabi kasalliklarni davolashda *salvia officinalis* dan damlama ko‘rinishida foydalanilgan [1; 165-b, 2; 153-b].

Bundan tashqari ushbu o‘simlikning barcha turlari dezinfektsiyalovchi, balg‘am ko‘chiruvchi, yaralarni davolovchi, biriktiruvchi, yumshatuvchi, antiseptik va qon to‘xtatuvchi xususiyatlarni ham namoyon etishi aniqlangan. Shuning uchun *salvia officinalis* barglari va boshqa tarkibiy qismlaridan Yevropa va MDH mamlakatlarida tabiiy dorivor vosita sifatida foydalaniladi [3; 390-b].

MDH mamlakatlarida *Salvia officinalis* barglari "Parodontotsid", "Elakosept", "Stomatofit" kabi dorivor yig‘malar tarkibiga kiritilgan. Ukraina Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya va virusologiya institutida 1959 yilda Salvia officinalis barglaridan N.A. Derbentseva boshchiligidagi bir guruh olimlar tomonidan antimikrob xususuyatlarni namoyon etuvchi "Salvin" nomli preparat yaratilgan [4; 44-b].

Natijalar va muhokamalar: Ilmiy o‘rganishlarimizda Shalfey (Salvia) va Tog‘rayxon(Oregano) o‘simliklarini 50:50 nisbatda aralashtirib OREGANO-AS oziq ovqat *qo‘shilmasini og‘riq qoldiruvchi va o‘tkir ekssudativ yallig‘lanish faolligini* o‘rganib chiqdik. Tadqiqot natijalari Microsoft Excel dasturi yordamida o‘rtacha qiymat (M) va o‘rtacha hatolikni (m) aniqlash an’anaviy usullar bilan statistik qayta ishlandi; farqlar -$p<0,05$ ahamiyatli darajasida statistik ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Styudent mezoni (t) statistik ishonarli o‘zgarish $p<0,05$ darajasida olindi.

Olingan tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan bo‘lib, nazorat gypyhi hayvonlaridagi burishishlarning paydo bo‘lishigacha bo‘lgan latent davri 3,043±0,7 daqiqani, *Oregano As* aralashmasi namunasining 250 va 500 mg/kg dozalarida bu ko‘rsatkich mos ravishda 4,38±3,4 va 4,58±30,4 daqiqani tashkil etib, og‘riq reaksiyasining kechikishi nazoratdai 1,4 va 1,5-martaga yuqori bo‘ldi, ammo ular orasida statistik ishonarli farqlar kuzatilmadi.

Sirka kislotasi natijasida kelib chiqadigan burishishlar soni nazorat guruhi sichqonlarida 28,0±32,3; o‘rganilayotgan namunaning 250 va 500 mg/kg dozalarida 17,0±2,1 va 16,2±1,7 tashkil etdi va nazoratda xar ikkala dozada statistik ishonarli farqlapga erishildi ($p<0,01$; $p<0,005$). Og‘riq qoldiruvchi samaradorlik namunada nazorat guruhiga nisbatan 39,3 va 42,1% ni tashkil etdi (2-jadval).

1-jadval

Oregano As oziq-ovqat qo‘shilmasining sichqonlarda sirka kislotasi keltirib chiqaradigan og‘riq reaksiyalariga ta’sirini baholash (M±m; n=6)

Guruhlar	Doza, ml, mg/kg	Latent davri, daq.	Burishishlar soni	Og‘riq qoldiruvchi samaradorlik, %
Nazorat	0,2	3,04±0,7	28,0±2,3	
Oregano As	250	4,38±30,4	17,0±2,1*	39,3
	500	4,58±30,5	16,2± l,7**	42,1

*p<0,0l; **p<0,005;-nazoratga nisbatan ishonchliligi

Shunday qilib, og‘riq reaksiyalarining kamayishi o‘rganilgan 250 va 500 mg/kg dozalarda nazorat guruhi sichqonlariga nisbatan statistik ahamiyatli farqqa erishsada, samaradorlik 50% ga farq qilmadi.

Tajribamizning keyingi qismida aynan mana shu sichqonlar guruhiga sirka kislotasining 0,75% suvli eritmasi qorin bo‘shlig‘iga kiritilganidan so‘ng 2 soat o‘tgach dekapitatsiya qilinib qorin bo‘shlig‘idagi ekssudatsiya yig‘ib olindi va ekssudativ yallig‘lanishga qarshi faolligi nazorat guruhi hayvonlariga nisbatan qiyoslab baholandi va natijalar 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

“Oregano As” oziq-ovqat qo‘shilmasini sichqonlarda sirka kislotasi keltirib chiqaradigan ekssudativ yallig‘lanishga qarshi faolligi (M±m; n=6)

Guruhlar	Doza ,mg/ kg	Ekssudatsiya hajmi, ml	Ekssudatsiyaga qarshi samaradorlik, %
Nazorat	2,0 ml	0,6±0,029	
Oregano As	250	0,42±0,05*	30,7
	500	0,3±0,04**	50,0

*p<0,05; **p<0,005 nazorat guruhiga nisbatan ishonchliligi

Sichqonlardagi ekssudatsiya hajmi nazorat guruhi sichqonlarida 0,6±0,029 ml bo‘lib, *Oregano As* aralashmasining 250 mg/kg dozasida 0,42±0,05 ml; 500 mg/kg dozasida 0,3±0,04 ml tashkil etdi va tajriba guruhlaridagi sichqonlar ekssudatsiyasi hajmi nazorat guruhi bilan taqqoslanganda har ikkala dozada ham statistik ishonarli natija ko‘rsatdi (mos ravishda p<0,01; p<0,005).

Ekssudatsiyaga qarshi samaradorlik *Oregano As* aralashmasining 250 va 500 mg/kg dozalari kiritilgan sichqonlarda mos ravishda 30,7% va 50% ni tashkil etdi. Shunday qilib, ekssudatsiyaga karshi faollik sichqonlar qorin bo‘shlig‘idagi ekssudatsiya hajmining kamayishiga ko‘ra baholanganda, ekstraktning 250 va 500 mg/kg dozalarida nazoratga nisbatan statistik ishonarli fapqlapga erishgan bo‘lsada, uning 500 mg/kg dozasida ekssudatsiyaning kamayishi 50%ni tashkil etdi va qo‘llanilgan modelning talabiga binoan samaradorlik 50% ni tashkil etdi.

Hulosa:O‘tkazilgan tajribalardan xulosa shuki, *Oregano As* aralashmasi 250 va 500 mg/kg dozalarda sichqonlarda og‘riq qoldiruvchi va o‘tkir ekssudativ yallig‘lanishga qarshi faolligi o‘rganilganda, har ikkala usulda ham nazorat guruhidan statistik ahamiyatli farqlarga erishildi ($p<0,01$; $p<0,005$). Og‘riq qoldiruvchi faollik *Oregano As* aralashmasining 250 va 500 mg/kg dozalarida 39,3 va 42,1%, ekssudatsiyaga qarshi faollik esa 250 mg/kg dozada 30,7% bo‘lib, o‘tkazilgan tajribalarning talabiga ko‘ra samaradorlik 50% dan kam bo‘ldi. Shalfey (Salvia) va Tog‘rayxon(Oregano) o‘simliklarini 50:50 nisbatda aralashtirib OREGANO-AS oziq ovqat *qo‘shilmasini og‘riq qoldiruvchi va o‘tkir ekssudativ yallig‘lanish faolligini* o‘rganib chiqdik va olingan natijalarga binoan biz ushbu aralashmadan halq tabobati uchun yalliglanish kasalliklarini davolash maqsadida oziq-ovqat qo‘shilmasi olish uchun tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Губанова Е.А., Лысенко Т.А., Попова О. И., Ивашев М.Н. Противовоспалительная активность настоя травы шалфея мускатного (Salvia sclarea L., Lamiaceae) – Вест. Воронеж. гос. ун-та. сер: Хим. Биол. Фарм. 2009, 2, 165-166

2. Keshavarz M, Mostafaie A, Mansouri K, Bidmeshkipour A, Motlagh HR, Parvaneh S. In vitro and ex vivo antiangiogenic activity of Salvia officinalis. Phytother Res. 2010;24:1526-1531. Изучение состава биологически активных веществ сухих экстрактовэхинацеи узколистной и шалфея лекарственного/В.М. Косман [и др.] //Химиярастительного сырья. – 2012. – № 1. – С. 153– 160.

3. Джолимбетов О.Н. и др. Лечебные свойства шалфея лекарственного (salvia officinalis). форум молодых ученых 6(58) 2021. С. 296-298., Р.Н.Айтбеков и др. Фармакологические свойства salvia officinalis и его компонентов. Фармация. Октябрь, №5 (250), 2023. С.390-399

4. Дербенцева Н. А. Зелепуха С. И., Швайгер М. О. Антимікробні перобини з шавлп лікарськоі // Микробиол. журн. 1959. № 6. С. 43-47

5. Jumanova, B. (2023). Chemical Composition of the Marmarak medicinal plant (Salvia officinalis) and use in people's medicine. B academic research in modern science (T. 2, Выпуск 26, cc. 158–162). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.1038941

6. Jumanova, B. (2024). CHEMICAL COMPOSITION OF THE MEDICINAL PLANT SAGE AND ITS USE IN TRADITIONAL MEDICINE https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=5yBnCGoAAAAJ&citation_for_view=5yBnCGoAAAAJ:ufrVoPGSRksC

7. Jumanova, B. (2024). OREGANO-AS OZIQ OVQAT QO'SHILMASI TARKIBIDAGI VITAMINLAR MIQDORINI ANIQLASH https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=5yBnCGoAAAAJ&citation_for_view=5yBnCGoAAAAJ:hqOjcs7Dif8C

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14782641

DINAMIKA TUSHUNCHASI VA ASOSIY QONUNIYATLARI

Kurbanov Hayotjon, Chaqqonov Sardor
Toshkent davlat transport unversiteti dotsenti (PhD)
Toshkent davlat transport unversiteti talabasi
E-mail: hayot1234.u @mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada dinamikaning asosiy prinsiplari, dinamika hayotda qanday o‘rin egallashi, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, nazariy asoslari, shuningdek, umumiy teoremalari va qonunlari muhokama qilingan.*

Kalit so‘zlar: *dinamika, mexanik harakat, elastik deformatsiya, plastik deformatsiya, gidrodinamika, kuch, massa, tezlanish, og‘irlik kuchi tezlanishi, og‘irlik kuchi.*

CONCEPT AND BASIC LAWS OF DYNAMICS

Kurbanov Khayotjon, Chaqqonov Sardor
Associate Professor of Tashkent State Transport University (PhD)
Student of Tashkent State Transport University
E-mail: hayot1234.u @mail.ru

Abstract: *The article discusses the main principles of dynamics, how dynamics occupies a place in life, its connection with other sciences, theoretical foundations, as well as general theorems and laws.*

Key words: *dynamics, mechanical movement, elastic deformation, plastic deformation, hydrodynamics, force, mass, acceleration, acceleration of gravity, force of gravity.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

“Dinamika” so‘zi yunoncha “dunamis” (quvvat, kuch) so‘zidan kelib chiqadi va ko‘pincha harakat va kuchlar o‘rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, jarayonlar va o‘zgarishlarni o‘rganadigan sohalarni anglatadi. Dinamika fizikada, biologiyada, iqtisodiyotda va boshqa ilmiy sohalarda muhim tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni tushunishga yordam beradi.

Dinamika hayotda qanday o‘rin egallaydi:

1. Fizika: Dinamika, mexanika asosan, jismlarning harakati va ularga ta’sir etuvchi kuchlarni o‘rganadi. Bu ilmiy soha muhandislik va texnologiyada qo‘llaniladi, masalan, transport vositalarining harakati, bino va inshootlarning chidamliligini hisoblashda.

2. Biologiya: Organizmning biologik jarayonlari, masalan, qondagi hujayralarning, fermentlarning yoki boshqa molekulalarining harakati dinamikani o‘z ichiga oladi. Bu tadqiqotlar meditsina va farmakologiyada muhim ahamiyatga ega.

3. Ijtimoiy fanlar: Dinamika ijtimoiy tadqiqotlarda ham muhimdir. Jamiyatlar, iqtisodiyot va siyosiy tizimlarning o‘zgarishi va rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlar va ularning dinamikasi o‘rganiladi.

4. Psixologiya: Inson harakatlarining motivlari va hissiyotlari, shuningdek, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar dinamikasi psixologiyada o‘rganiladi.

5. Ta’lim: Ta’lim jarayonlarida dinamikalar o‘rganilishi, talabalarning o‘qish uslublari, dars jarayonida faollik va o‘zaro ta’sirlari dinamikasini o‘rganish orqali o‘qitish metodlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Dinamika hayotimizda doimiy ravishda mavjud va ko‘plab sohalarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Uning o‘rganilishi nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham muhim ahamiyatga ega. Harakat va o‘zgarishlarni tushunish orqali biz atrofimizdagi olamni yaxshiroq bilib olamiz va turli muammolarni hal etishda yordam beradigan yechimlarni topamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Dinamika - mexanikannng jismlar mexanik harakatini ularga ta’sir qiladigan kuchlar bilan bog‘lab o‘rganadigan bo‘limi. Dinamikada statikaning murakkab kuchlar sistemasini sodda holga keltirish qonuniyatlaridan va kinematikadagi harakatni ifodalash usullaridan keng foydalaniladi. Dinamikaning bevosita vazifasi berilgan (qo‘yilgan) kuchlar bo‘yicha harakatni aniqlash, agar harakat ma’lum bo‘lsa, jismga qo‘yilgan kuchlarni topishdan iborat. Odatda, dinamika deganda yoruglik tezligidan ancha kichik tezlikda harakatlanayotgan har qanday moddiy jismning harakatini o‘rganadigan an’anaviy (klassik) dinamika tushuniladi [1, 3,5].O‘rganiladigan ob’yektning xossalariga qarab:

1) moddiy nuqta va moddiy nuqtalar sistemasi dinamikasi;

2) qattiq jism dinamikasi;

3) o‘zgaruvchan massali jism dinamikasi;

4) elastik yoki plastik deformatsiyalanadigan jism dinamikasi;

5) suyuqlik va gaz dinamikasi (mas, gidrodinamika, aerodinamika, gaz dinamikasi) bo‘linadi.

Dinamikada avval moddiy nuqtaning harakat qonunlari aniqlanadi, so‘ngra moddiy nuqtalar sistemasi uchun bu qonunlar umumlashtiriladi, massa jismlarning moddiy ifodasi sifatida qaraladi.

Dinamika asosini Nyutonning mexanika qonunlari tashkil qiladi. Dinamikada ikkita birliklar sistemasi ishlatiladi:

1) fizik sistema [uzunlik birligi (1 metr), vaqt birligi (1 sekund), massa birligi (1 kilogramm-massa) olinadi];

2) texnik sistema [uzunlik, vaqt birligi va kuch birligi (1 kilogramm-kuch)]. Dinamikada moddiy nuqtalar va sistemalarning harakati Nyutonning qonunlari asosida tuzilgan differensial tenglamalar asosida aniqlanadi.

Dinamikada moddiy nuqta tebranma harakatini tekshirish uchun differensial tenglamalardan foydalaniladi va harakat qonunlari keltirib chiqariladi. Bundan tashqari dinamikada harakatni tekshirish uchun nisbatan soddalashtirilgan uch xil usul ham keltiriladi. Bular dinamikaning umumiy teoremalari degan nom bilan kiritilgan [2, 6,9].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Amalda dinamikaning quyidagi umumiy teoremalari juda keng tatbiq qilinadi:

1) sistema harakat miqdorining o‘zgarishi haqidagi teorema: sistema harakat miqdori differensiali tashqi kuchlar elementar impulslarining geometrik yig‘indisiga teng. Bu teorema suyuqliklar harakatini tekshirishda, zarba nazariyasida, reaktiv harakatlar nazariyasida keng tatbiq qilinadi;

2) sistema kinetik momentining o‘zgarishi haqidagi teorema: sistemaning biror O markaziga nisbatan kinetik momentining vektori uchining tezligi sistemaga qo‘yilgan tashki kuchlarning shu nuqtaga nisbatan bosh momentiga teng. Bu teorema giroskoplar nazariyasida, zarba nazariyasida, sayyoralar harakatini tekshirishda, turbinalar nazariyasida keng tatbiq qilinadi;

3) sistema kinetik energiyasining o‘zgarishi haqidagi teorema: sistemaning ixtiyoriy siljishidagi kinetik energiyasi o‘zgarishi ichki va tashqi kuchlarning shu siljishda bajargan ishlari yig‘indisiga teng.

Sistemaga potensial kuchlar qo‘yilsa, sistema kinetik va potensial energiyalarining yig‘indisi o‘zgarmay qoladi. Kinetik energiyaning o‘zgarish tezligi barcha ichki va tashki kuchlar quvvatlari yig‘indisiga teng. Dinamikada umumlashgan koordinatalar va umumlashgan kuchlar tushunchalari kiritilib, kinetik energiyani bu yangi koordinatalarda ifodalash uchun Lagranj ikkinchi tur tenglamalari keltirib chiqariladi. Harakatni tadqiq qilishning umumiy usullaridan tashqari dinamikada bir qator xususiy masalalar: giroskoplar nazariyasi, mexanik tebranishlar nazariyasi va boshqalar ham o‘rganiladi. Dinamika usullarining ayrim sohalarga tatbiq qilinishi

tufayli osmon mexanikasi, tashqi ballistika, samolyotlar dinamikasi, raketalar dinamikasi kabi sohalar paydo bo‘ldi [4,7, 8].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Hozirda 10-sinf fizika darsligida “dinamika” bo‘limi, asosan, jismlarning harakati va ularning harakatiga ta’sir etuvchi kuchlar bilan bog‘liq bo‘lgan qonunlarni o‘rganadi. Quyida 10-sinf darsligida dinamika haqida asosiy ma’lumotlar keltirilgan:

Dinamikaning asosiy qonunlari:

- Nyutonning birinchi qonuni (inertsiya qonuni): Agar jismga tashqi kuch ta’sir etmasa, u xarakat holatini saqlab qoladi (ya’ni, tinch holda qolishi yoki bir tekis harakatni davom ettirishi).

- Nyutonning ikkinchi qonuni: Jismning tezligi o‘zgarishi (ya’ni, shiddati) unga ta’sir etayotgan kuchga to‘g‘ri proporsional va massaga teskari proportsional. Bu tenglama $= F/m$, bu yerda F kuch, m massa va a tezlikning o‘zgarishidir.

- Nyutonning uchinchi qonuni (harakatning ta’siri va qarshi ta’siri qonuni): Har qanday kuch uchun harakatning ta’siri va qarshi ta’siri bor, ya’ni, bir jism ikkinchisiga kuch ta’sir etganida, ikkinchisi birinchi jismga qarshi teng kuch ta’sir qiladi.

Kuchlar: Og‘irlik kuchi - Jismning yerga tortishish kuchi, $F = mg$ formula orqali ifodalanadi (bu yerda m - massa, g -yerdagi og‘irlik tezlanishi).

Sirt kuchlari: Jism boshqa bir jism yoki sirt bilan ta’siri natijasida hosil bo‘ladigan kuchlar.

Harakat turlari: To‘g‘ri chiziqli harakat: Jismning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakati.

Periodik harakat: Vaqt davomida takrorlanadigan harakat (masalan, pendul harakati).

Dinamika va mexanika asoslari:

Dinamika mexanikaning tarmog‘i bo‘lib, jismlarning harakati va kuchlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘rganadi. Ushbu bilimlar muhandislik, transport, aerodinamika kabi sohalarda qo‘llaniladi.

Dinamikada kuch birligi (N, $kg \cdot m/s^2$), tezlik (m/s), tezlanish (m/s^2), massa (kg) kabi asosiy fizik o‘lchovlar ishlatiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Dinamika jism harakatining asosiy omillari, ya’ni kuchlar va massalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi. Jismning harakati haqida to‘g‘ri tushuncha hosil qilish uchun Nyuton qonunlarini bilish zarur. Dinamika bizga jismlarning harakatini, vaqt, tezlik va kuchlarni birgalikda o‘rganish imkonini beradi.

Dinamika haqida chuqurroq o‘rganish, real hayotdagi harakatlangan jismlarning kuzatuvda qo‘llanilayotgan barcha fizika qonunlari va formulalarini puxta tushunishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO‘XATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. A.G.Ganiyev, A .K. Avliyoqulov, Almardonova G. (2002). Fizika.1-qism Toshkent. “O‘qituvchi”. -B.34-43.
2. K.A. Tursunmetov, Sh. N. Usmonov, J.A.Raxmatov, D.D. Xomidov (2022). 10-sinf Fizika darsligi. -Б.8-46.
3. Kurbanov M., Kurbanov K. (2023). Oliy ta’lim tizimini o ‘quv laboratoriya ishlarini modernizatsiyalashning ustuvor yo ‘nalishlari //Educational Research in Universal Sciences. – T. 2. –№. 10. –B.4-8.
4. Kurbanov M. et al. (2020). Elements of optoelectronics in the course of general physics //International Journal of Advanced Science and Technology. – №. 5. – Pp. 1854-1861.
5. Kurbanov M., Kurbanov K. (2023). Texnik-muhandislik oliy ta’lim muassasalarida fizika faniga oid kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi //Educational Research in Universal Sciences. –T. 2. –№. 10. –B. 210-217.
6. Kurbanov M., Kurbanov K. (2023). Fizikadan fundamental qonunlarni o‘rganiladigan laboratoriya mashg ‘ulotlarini tashkil etish va o ‘tkazish metodikasi //Educational Research in Universal Sciences. – T. 2. – №. 5.–B. 4-8.
7. Kurbanov M., Kurbanov X. (2023). Amaliy mashg‘ulotlarni bajarish jarayonida olingan natijalarni maple dasturi asosida tahlil qilish //Educational Research in Universal Sciences. – T. – №. 4. –B.4-7.
8. Курбанов М., Курбанов Ҳ. (2022). Физика лаборатория машғулотларида ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиш //Educational Research in Universal Sciences. – T. 1. – №. 4. –B.203-207.
9. Kurbanov M., Kurbanov K. Oliy ta’lim tizimini o ‘quv laboratoriya ishlarini modernizatsiyalashning ustuvor yo ‘nalishlari //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 10. – B.4-8.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14782666

ИЗУЧЕНИЕ МОРФОФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ САХАРНОГО СОРГО (SORGHUM SACCHARATUM L.) В УСЛОВИЯХ ИНТРОДУКЦИИ

Сафарова Н.К., Исомов Ж.А., Сафаров А.К.
Ташкентский фармацевтический институт образования и исследований,
Национальный университет Узбекистана, г.Ташкент, Республика Узбекистан
E-mail: nigorask79@gmail.com

Аннотация: *В данной статье представлены результаты исследования морфофизиологических особенностей сахарного сорго (Sorghum saccharatum L.) в условиях интродукции в Ботаническом саду Национального университета Узбекистана. Проведены исследования всхожести семян при различных температурах, изучена динамика роста и развития растений, а также определены урожайность зеленой массы и зерна. Полученные данные свидетельствуют о высокой продуктивности и адаптационных возможностях сахарного сорго в условиях Узбекистана, что делает его перспективной культурой для кормопроизводства и получения сахаросодержащих продуктов. Анализ полученных результатов позволяет рекомендовать сахарное сорго для дальнейшего использования в сельском хозяйстве республики.*

Ключевые слова: *сахарное сорго, интродукция, морфофизиологические особенности, всхожесть семян, рост, развитие, урожайность, зеленая масса, зерно.*

Abstract: *This article presents the results of a study on the morphophysiological characteristics of sweet sorghum (Sorghum saccharatum L.) under introduction conditions at the Botanical Garden of the National University of Uzbekistan. The research included seed germination studies at various temperatures, the dynamics of plant growth and development, as well as the determination of green mass and grain yield. The obtained data indicate high productivity and adaptive capabilities of sweet sorghum in the conditions of Uzbekistan, making it a promising crop for forage production and the production of sugar-containing products.*

Keywords: *sweet sorghum, introduction, morphophysiological characteristics, seed germination, growth, development, yield, green mass, grain.*

ВВЕДЕНИЕ. Данное исследование необходимо для интенсификации кормопроизводства в Узбекистане и поиском высокопродуктивных, засухо- и солеустойчивых культур, пригодных для выращивания в условиях ограниченного водного режима и засоленных почв, характерных для многих регионов республики. Сахарное сорго, благодаря своим биологическим особенностям, представляется перспективной культурой для решения этих задач. Его использование позволит повысить эффективность использования земельных ресурсов, снизить затраты на производство кормов и улучшить качество рационов сельскохозяйственных животных.

МЕТОДИКА ИССЛЕДОВАНИЙ. Постановка полевых опытов, фенологические учёты и наблюдения за ростом и развитием растений, определение всхожести и энергии прорастания семян, сбор урожая проводились согласно Методике государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур и другим [4,5,3,2,1,8].

Исследование проводилось в 2023 - 2024 годах в Ботаническом саду Национального университета Узбекистана имени М. Улугбека. Эксперимент закладывался на участках размером 6х5м с четырёхкратной повторностью. Использовались стандартные агротехнические приёмы, адаптированные к местным условиям.

Всхожесть семян является важным показателем, который отражает их жизнеспособность и способность к прорастанию в благоприятных условиях. Этот параметр включает несколько ключевых аспектов: качество семян, адаптация к условиям, экономическая эффективность, планирование посевов и устойчивость к стрессам.

Учет урожайности изученных растений проводился в зависимости от их биологических особенностей и в соответствии с рекомендациями по возделыванию. Растительный материал для анализов отбирался с каждой учётной делянки. Измерялась высота растений, количество листьев на растении.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ.

Сорго является важнейшей кормовой, технической и продовольственной культурой, которая занимает широкий ареал возделывания во всем мире. Сахарное сорго однолетнее растение, высота и количество стеблей зависят от сорта, плодородия почвы и климатических условий. Сахарное сорго обладает высокой отавностью, отличается соле- и засухоустойчивостью.

Оптимальным сроком посева семян является период, когда среднесуточная температура почвы на глубине 10 см. достигает для зернового сорго 14-15^{o}C, для сахарного сорго – 15-16^{o}C. Оптимальной глубиной заделки семян сорго следует считать глубину 4-6 см.

Всхожесть семян определялась в термостате при температурах 12-14°C, 16-18°C и 20-22°C по стандартной методике с трёхкратной повторностью. Подсчитывалась энергия прорастания (в течение 3-4 суток) и лабораторная всхожесть (в течение 7-8 суток) (Табл.1).

Таблица 1.

Всхожесть и энергия прорастания семян сахарного сорго при разных температурах.

Растение	Температура (°C)	Энергия прорастания (%)	Лабораторная всхожесть (%)
Сахарное сорго	12-14	14,9 ± 0,3	18,0 ± 0,8
	16-18	49,1 ± 2,3	58,8 ± 2,8
	20-22	84,3 ± 3,9	99,2 ± 1,4

Лабораторная всхожесть показывает процент семян, которые успешно прорастают в контролируемых условиях. Согласно приведенным данным, при температуре 12-14°C лабораторная всхожесть семян сахарного сорго составила 18,0%±0,8%, что говорит о низком уровне всхожести. При температуре 16-18°C лабораторная всхожесть увеличивается до 58,8%±2,8%, что указывает на улучшение условий для прорастания. При температуре 20-22°C лабораторная всхожесть достигла 99,2%±1,4%, что свидетельствует о том, что почти все семена прорастают в этих условиях.

Энергия прорастания отражает процент семян, которые начинают прорастать при заданной температуре. Она показывает жизнеспособность семян и их активность прорастания. При температуре 12-14°C энергия прорастания составляет 14,9%±0,3%. При температуре 16-18°C энергия прорастания значительно увеличивается до 49,1%±2,3%, что указывает на более благоприятные условия для прорастания. При температуре 20-22 °C энергия прорастания достигает 84,3% ± 3,9%, что говорит о том, что почти 85 семян из 100 начнут прорастать.

Таким образом, можно сделать вывод, что температура играет ключевую роль в прорастании семян сахарного сорго: чем выше температура, тем выше как энергия прорастания, так и лабораторная всхожесть.

Фенологические наблюдения темпов роста и развития сахарного сорго проводились с интервалом в 10 дней, регистрировались фазы развития растений: появление всходов, проростков, первые настоящие листья, цветение, созревание и спелость (Табл.2).

Таблица 2.

Продолжительность периодов развития сахарного сорго

п/н	Вегетативный период	Начало-завершение	Продолжительность (дни)
1	Всходы	30 мая – 4 июня	5
2	Появление проростков	5 июня – 7 июня	3
3	Первые настоящие листья	8 июня – 10 июня	4
4	Вегетативный рост	11 июня – 15 июля	35
5	Цветение	16 июля – 15 августа	30
6	Созревание и спелость	16 августа – 30 сентября	45

Высота изученных растений сахарного сорго составила 240-325 см., количество листьев 18-20. Продолжительность вегетационного периода составила 120-125 дней.

Выбор способа уборки урожая зависит от целей и задач. Уборку зерна сахарного сорго проводят в фазу окончания восковой спелости, а для зеленой массы – перед цветением. Урожайность зеленой массы сахарного сорго за два укоса составляет 670-720 ц/га, семян – 27-29 ц/га. Семена хранятся в высушенном состоянии (влажность не более 14 %). Биологическая особенность сорго заключается в том, что при созревании зерна листостебельная масса ещё зеленая. При этом влажность листьев составляет 60%, а стеблей – 70-75% (Табл.3).

Таблица 3.

Урожайность зеленой массы и зерна сахарного сорго

Растение	Урожайность зеленой массы (ц/га)	Урожайность зерна (ц/га)
Сахарное сорго	670 ± 28,1	27,1 ± 1,3

Изучена также динамика накопления сахаров в стеблях растений. Согласно данным Х. Мўминова (1982), содержание сахаров в стеблях сахарного сорго динамично изменяется в течение вегетационного периода. В фазе кущения оно составляет около 6,7%, в фазе цветения – 11,4%, достигая максимума (17,7%) в фазе молочной спелости и несколько снижаясь до 16,5% в фазе восковой

спелости [6]. В наших исследованиях максимальное содержание моно- и дисахаридов в стеблях сахарного сорго в фазе восковой спелости составило 16,7-19,3% [7].

ВЫВОДЫ. Сахарное сорго показало высокую адаптивность к условиям интродукции в Ботаническом саду НУУз. Оптимальная температура для прорастания семян сахарного сорго составляет 20-22°С. Урожайность зеленой массы и зерна у исследованных растений достаточно высока и сопоставима с данными, полученными в других регионах с аналогичными климатическими условиями. Сахарное сорго является перспективной культурой для кормопроизводства и получения сахаросодержащих продуктов в Узбекистане.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бейдеман И.Н. Методика изучения фенологии растений и растительных сообществ. – Новосибирск: Наука. 1974. – 153 с.
2. Борисова И.В. Сезонная динамика растительного сообщества // Полевая геоботаника. – Л.: Наука, 1972. – С.5-94.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – М.: Агропромиздат, 1985. – 347 с.
4. Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур. – М.: Колос, 1979. – 243 с.
5. Методика полевых опытов с хлопчатником в условиях орошения. Под ред. А. Имамалиева. – Ташкент, СоюзНИХИ, 1981. – 226 с.
6. Муминов Х. Окжухори. – Ташкент: Узбекистан, 1978. – С.11-15
7. Сафаров А.К. Физиолого-биохимические основы интродукции перспективных растений в Узбекистане // Автореф….дисс.докт.биол.наук. – Ташкент, 2021. – 33 с.
8. Усанова З.И. Методика выполнения научных исследований по растениеводству. – Тверь: ТГСХА, 2015. – 143 с.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14782703

ME’DA OSTI BEZINING REVMATOID ARTRIT VA OSTEOARTROZDA BEVOSITA SHIKASTLANISHLARI VA OLINGAN NATIJALARNI SOLISHTIRISH, TAHLIL QILISH

Holikova Nigina Ravshanovna
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi
niginaxalikova.med@gmail.com

Tangriqulov Sulaymon Abdurahim o‘g‘li
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

Sitora Shavkatovna Almuratova
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti talabasi
sitorashavkatovna92@gmail.com

Holbekova Shaxnoza Bahtiyorovna
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada Revmatoid artrit va osteoartroz kasalliklarini me’da osti bezi shikastlanishini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash maqsadida ikkata guruh belgilari bir-biri bilan solishtirildi. Revmatoid artrit va osteoartroz kasalliklarida me’da osti bezi shikastlanishi yallig‘lanish jarayonida shikastlangan bo‘g‘imlar soni, bo‘g‘imlardagi funksional yetishmovchilik bilan bog‘liqligi yo‘qligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: revmatoid, osteoartroz, artrid, rentgenologik, me’da osti bezi.

АНАЛИЗ ПРЯМЫХ ПОРАЖЕНИЙ ПОДЖЕЛУДОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ ПРИ РЕВМАТОИДНОМ АРТРИТЕ И ОСТЕОАРТРОЗЕ И СРАВНЕНИЕ, ПОЛУЧЕННЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ

АННОТАЦИЯ

В статье сравнивались симптомы двух групп с целью выявления факторов, вызывающих повреждение поджелудочной железы при ревматоидном артрите и остеоартрозе. Было обнаружено, что повреждение поджелудочной железы при ревматоидном артрите и остеоартрозе не связано с количеством

суставов, поврежденных воспалительным процессом, функциональной недостаточностью суставов.

***Ключевые слова**: ревматоидный, остеоартроз, артрит, рентгенологический, поджелудочная железа.*

Revmatoid artrit (RA) va osteoartroz (OA) kasalliklari bo‘g‘im sistemasi kasalliklari bo‘libgina qolmay, ma’lum darajada ichki a’zolarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi, jumladan, me’da osti beziga ham. Bu kasalliklarda me’da osti bezi shikastlanib, klinik jihatdan har doim ham namoyon bo‘lavermaydi, laborator va instrumental tekshirishlarda aniqlanadi. Bu ikkala kasallikning qaysi birida me’da osti bezi shikastlanishi ko‘proq uchrashi, kasallikning qanday kechishi va klinik ko‘rinishlarida ko‘proq uchrashi, bu kasalliklarda me’da osti bezi (MOB) shikastlanishini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash maqsadida ikkala guruh quyidagi belgilari orqali bir-biri bilan solishtirildi.

Agar revmatoidartrit va osteoartrozda me’da osti bezi bevosita shikastlansa, demak kasallik qancha davom etsa, shikastlanish shuncha ortib borishi kerak. 1 – va 2 – jadvallarda revmatoid artrit va osteoartroz kasalliklarida me’da osti bezining kasallik davomiyligiga bog‘liqligi tasvirlangan.

1 –jadval. RA kasalliklarining davomiyligi

Kasallik davomiyligi	Bemorlar soni	
	Asosiy	nazorat
5 yilgacha		8
6-10 yil	13	3
11-15 yil	5	
16-20 yil	5	
21-25 yil	4	

2-jadval.
OA kasalliklarining davomiyligi

Kasallik davomiyligi	Bemorlar soni	
	Asosiy	nazorat
5 yilgacha		2
6-10 yil	1	2
11-15 yil	1	4
16-20 yil		
21-25 yil	1	
26-35 yil		1

Buning grafik ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi



Bu diagrammadan revmatoid artritda kasallik davomiyligi uzaygan sari MOB shikastlanishi oshib borgani, osteoartrozda esa kasallik davomiyligiga bog‘liq emasligi ko‘rinib turibdi.

Yuqorida aytilganidek, bemorlarda shikastlangan bo‘g‘imlar soni RA li bemorlarda 20 – 46 ta, OA li bemorlarda2 – 6ta, shulardan asosiy guruhdagi RA li bemorlarda 23 – 46ta, OA li bemorlarda2 – 4 ta bo‘g‘im shikastlangan, nazorat guruhda esa RA li bemorlarda 20 – 40 ta, OA li bemorlarda 2 - 6 ta bo‘g‘im shikastlanganligi aniqlandi (3.2-diagramma).



Shikastlangan bo‘g‘imlar sonining MOB shikastlanishi bilan bog‘liqligi

Ikkala guruhni solishtirganda RA li bemorlarda shikastlangan bo‘g‘imlar soni orasidagi farq unchalik katta emas, OA li bemorlarda esa aksincha, nazorat guruhidagi

bemorlarda nisbatan ko‘proq bo‘g‘imlar shikastlangan. Bundan kelib chiqadiki, MOB ga shikastlangan bo‘g‘imlar soni ta’sir etmaydi.

Asosiy guruhda RA li bemorlarning 21 tasida II-chi (77,8%), 5 tasida III-chi (18,5%), 1 tasida IV-chi (3,7%) rentgenologik bosqichlari aniqlandi, I-chi rentgenologik bosqichli bemorlar yo‘q. OA li bemorlarning1tasida II-chi (33,3%), 2 tasida III-chi (66,7) rentgenologik bosqichlari aniqlandi, I- va IV-chi rentgenologik bosqichli bemorlar yo‘q.

Nazorat guruhida esa RA li bemorlarning 3 tasi I–chi (27,3%), 8 tasi II-chi (72,7%) rentgenologik bosqichida, III- va IV- rentgenologik bosqichli bemorlar yo‘q. OA li bemorlarning 3 tasi I–chi (33,3%), 3 tasi II-chi (33,3%) va yana 3 tasi III-chi (33,3%) rentgenologik bosqichida, IV-chi rentgenologik bosqichli bemorlar yo‘q (3-va 4-diagrammalar).



3. RA rentgenologik bosqichlarining MOB shikastlanishi bilan bog‘liqligi



4. OA rentgenologik bosqichlarining MOB shikastlanishi bilan bog‘liqligi

Bu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, MOB shikastlanishi belgilari bo‘g‘imlarida chuqurroq o‘zgarish bo‘lgan bemorlarda ko‘proq.

MOB shikasatlanishini kasallikning muhim belgilaridan biri bo‘lgan bo‘g‘imlardagi funksional yetishmovchilik bilan bog‘liqligini tahlil qilinganda quyidagi ko‘rsatgichlar belgilandi (5-va 6-diagrammalar): asosiy guruhda RA li bemorlarda bo‘g‘im funksional yetishmochiligi (BFE) ning I darajasi yo‘q, II darajasi 21 tasida (77,8%), III darajasi 6 tasida (22,2%), OA li bemorlarda BFE ning I va III - darajasi yo‘q, II darajasi hamma bemorda kuzatildi. Nazorat guruhida esa RA li bemorlarda BFE ning I darajasi 4 tasida (36,3%), II darajasi 6 tasida (54,6%), III darajasi1tasida (9,1%), OA li bemorlarda BFE ning I darajasi 4 tasida (33,3%), II darajasi 3 tasida, III –darajasi 2 tasida kuzatildi.



5. RA kasalligida bo‘g‘imlar funksional yetishmovchiligining MOB shikastlanishi bilan bog‘liqligi



6. OA kasalligida bo‘g‘imlar funksional yetishmovchiligining MOB shikastlanishi bilan bog‘liqligi

Bu ko‘rsatgichlar kasallikda bo‘g‘imlarning funksional yetishmovchiligi darajasi MOB shikastlanishiga ta’siri kamligini ko‘rsatadi (5 - va 6 - diagrammalar).

RA ning faolligini MOB ga ta’sirini aniqlash uchun ham yana raqamlarga murojaat etdik. Yuqoridaaytilganidek, bemorlarda I darajali faollik kuzatilmadi. Asosiy guruhdagi bemorlarning 20 tasida II darajali (74%), 7 tasida III darajali (26%) faollik darajalari aniqlandi. Nazorat guruhida barcha bemorlarda II darajali faollik aniqlandi. Bu jarayonning faollashuvi oshishi MOB ga ta’sir etadi (7-diagramma).



7. RA faollik darajalarining MOB ga ta’siri

Revmatoid omil asosiy guruhda 22 ta bemorda (81,5%) aniqlangan, 5 ta bemorda (18,5%) bo‘lmagan. Nazorat guruhida 2 ta bemorda (18,2%) aniqlangan, 9 ta bemorda (81,8%) reaksiya manfiy natija bergan. Bu ko‘rcatgichlar adabiyotlardagi ma’lumotlarni yana bir bor tasdiqladi (8-diagramma).



8. Revmatoid omilning MOB ga ta’siri.

Tayanch-harakat tizimini tahlil qilganda, RA va OA kasalliklarida MOB shikastlanishi yallig‘lanish jarayonida shikastlangan bo‘g‘imlar soni, bo‘g‘imlardagi funksional yetishmovchilik bilan bog‘liqligi yo‘qligi aniqlandi. Bo‘g‘imlardagi

o‘zgarishlarning chuqurligi, yallig‘lanish jarayonining faollashuvi esa ta’sir ko‘rsatishi ma’lum bo‘ldi. Bo‘g‘imlarida I -bosqichdagi rentgenologik o‘zgarishlar bo‘lgan bemorlarda MOB shikastlanish belgilari yo‘q, chuqurroq bo‘g‘im o‘zgarishlari bo‘lgan bemorlarda MOB shikastlanish alomatlari bor. RA kasaligida bo‘g‘imlarida III – va IV – bosqichli rentgenologik o‘zgarishlar bo‘lgan bemorlarning barchasida MOB shikastlangan. OA li bemorlarda jarayonni solishtirganda MOB shikastlanishi bo‘g‘im shikastlanishining III-bosqichida bo‘lgan bemorlarda II – bosqichli bemorlarga qaraganda ko‘proq.

RA ning faolligining III darajasi MOB shikastlanlangan bemorlarda bor, MOB shikastlanmagan bemorlarning barchasida II darajali faollik kuzatildi. Bundan kasallikning faolligining oshishi MOB ta’sir etishini bildiradi.

Adabiyotlar.

1. Медицинский портал 2009-2011 // Ревматоидный артрит//. Эл.почта: med@cureplant.ru.

2.Внутренние болезни / Под. ред. проф.Г.И.Бурчинского. 4-е изд., перераб. идоп. К.:Вища шк. Головное изд-во, 2000. 656с.

3.Статьи из журналов ревматоидный артрит: Новые возможности лечения. Н.Шостак, доктор медицинских наук, проф, БалабановаР.М. Новые направления в фармакотерапи и ревматических заболеваний. Научно-практическая конференция «Новое в диагностике и лечении ревматических заболеваний», доклад. —М., 13—15 декабря 2002.

4. Ситора Ш. А. Медицинская психология, принципы ее возникновения и история //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 77-81. https://doi.org/10.5281/zenodo.14498833

5. Almuratova, S. S. (2024). Revmatoid artrit va osteoartrozni davolash maqsadida qo‘llangan dori preparatlarining me’da osti beziga ta’siri. Educational research in universal sciences, 3(12), 198–202. https://doi.org/10.5281/zenodo.14498833

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14782727

SHAMOL EROZIYASIGA QARSHI YANGI IHOTA DARAXTZORLARINI BARPO ETISH

Raximov Jo‘ra Suyunovich
“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
Umumtexnik fanlar kafedrasi dotsenti,

Doktorant, **Yorqulova Shoxsanam Kamol qizi**
juraraximov_1964@mail.ru

Annotatsiya. *Qashqadaryo viloyatining qadimdan sug‘oriladigan, taqirsimon tuproqlarida yangi ihotazorlar tashkil etish, g‘o‘za, kuzgi bug‘doy va takroriy ekin sifatida soya o‘simligining oziq-ovqat xavfsizligida tutgan o‘rni va uning jozibadorligi.*

Kalit so‘zlar: *Tuproq, kuchli shamollar, yengil tuproq, qum zarrachalari, g‘o‘za, soya o‘simligi, agroximikatlar, kuzgi bug‘doy, takroriy ekin, taqir tuproq.*

Annotation: *The role of cotton, winter wheat and soybean as a repeat crop in the food security and its attractiveness, establishment of new hedgerows in the anciently irrigated, barren soils of Kashkadarya region.*

Keywords: *Soil, strong winds, light soil, sand particles, cotton, soybeans, agrochemicals, winter wheat, repeated cropping, barren soil.*

O‘zbekiston Respublikasining sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullaniladigan hududlarida tuproq va ekinlar tezligi kuchli deflyatsiya jarayonlaridan (> 15 m/s) sezilarli darajada zarar ko‘radilar. Tezligi kuchli shamollar paytida, mexanik tarkibi yengil tuproqlar harakatga kelib, chang bo‘ronlarni keltirib chiqarishi natijasida tuproqlarning eng unumdor qismlari chang holatida o‘choqlardan uchib ketadi, qum zarrachalari esa goho havoga ko‘tarilib, goho yerga tushib, tuproq ustidagi zarrachalarni qo‘zg‘atib, havoga ko‘taradi, ular o‘z navbatida ekinlar bargini teshib, o‘sish nuqtasini kesib ketadi, bu holatda, ko‘pincha g‘o‘zani qayta yoki qisman qayta ekishga to‘g‘ri kelib, ekin hosili kech pishadi, uning sifati buziladi, qayta ekish uchun ko‘p urug‘, yonilg‘i, moylash mahsulotlari, agroximikatlar sarflanadi, katta iqtisodiy zarar yetkazadi va tuproq bilan agroximikatlar havoga ko‘tarilib, atrof muhitni zararlaydilar, shuning uchun ham shamol eroziyasiga qarshi kurash qishloq xo‘jaligida iqtisodiyotni va ekologik ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyatining Qarshi va Koson tumanlaridagi, kuchli shamol zonasi och tusli bo‘z va taqirsimon tuproqlar hududida shamol eroziyasiga qarshi yangi ihota daraxtzorlarini barpo etish orqali g‘o‘za, kuzgi bug‘doy hamda takroriy soyaning agrotexnik choralarini ahamiyati to‘g‘risida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan va ushbu ishlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Janubiy xududning shamol eroziyasiga qarshi kurashda yangi ixotazorlarni barpo qilish orqali toboro oshib borayotgan suv tanqisligining salbiy oqibatlarini kamaytirish, daryo suvlarini iqtisod qilishga yangidan ilmiy yondashib, Qashqadaryo viloyatining taqirsimon tuproqlari sharoitida g‘o‘za, kuzgi bug‘doy va takroriy soyani sug‘orish taritiblarini qo‘llash, uning tuproqni suv-fizik xossalariga, suvdan samarali foydalanish, atrof muhitni muhofazalash hamda g‘o‘za, kuzgi bug‘doy va takroriy soyaning o‘sishi, rivojlanishi, paxta va don hosildorligiga ta’sirini aniqlashdan iboratdir.

Yillar davomida muttasil sug‘orma dehqonchilikda g‘o‘za, kuzgi bug‘doy va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarini shamol va irrigasiya eroziyasiga moyil bo‘lgan tuproqlar sharoitida sug‘orish texnologiyasi elementlarini modelashtirish keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yerlarning meliorativ holatiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha respublikamizda Q.M.Mirzajonov, N.F.Bespalov, G.A.Ibragimov, SH.N.Nurmatov, M.X.Xamidov, B.F.Kambarov, K.M.Beysenboyev, L.A.G‘ofurova, D.D.Umarova, S.B.Bo‘riyev, N.E.Malaboyev, T.Rajabov, M.Mahmudov A.Abdukarimov, S.Isayev, I.Xoshimov va xorijda D.Balla, S.Maasen, J.Andersson, B.Wedding, K.Tonderski, K.M.Keinzler, A.S.Qureshi, M.Qadir kabi olimlar va boshqalar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kuchli shamol eroziyasi tarqalgan xududlarida yangi ihotazorlarni barpo etish orqali toboro oshib borayotgan suv tanqisligining salbiy oqibatlarini kamaytirish, daryo suvlarini iqtisod qilishga yangidan ilmiy yondashib, Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z va taqirsimon tuproqlari sharoitida g‘o‘za, kuzgi bug‘doy va takroriy soyani sug‘orish tartiblarini ishlab chiqish hamda uning tuproqning suv-fizik xossalariga, g‘o‘za, kuzgi bug‘doy va takroriy soyaning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’sirini aniqlashdir.

Qashqadaryo viloyatining qadimdan sug‘oriladigan, taqirsimon tuproqlarida yangi ihotazorlar tashkil etish, g‘o‘za, kuzgi bug‘doy va takroriy ekin sifatida soya o‘simligini ekish maqsadga muvofiqdir .

Janubiy xududlarda ko‘proq shamol eroziyasiga qarshi kurashda yangi ihota daraxtzorlarini tashkil etish, g‘o‘za, kuzgi bug‘doy va takroriy soyani sug‘orish tartiblari, sug‘orish soni, mavsumiy sug‘orish meyori, suv istemoli, g‘o‘za, kuzgi

bug‘doy va takroriy soyaning o‘sishi, rivojlanishi, paxta va donning hosildorligi oshganligi kuzatiladi.

Ilmiy tadqiqotlar laboratoriya va dala tajribalarini o‘tkazish, fenologik kuzatish va biometrik o‘lchashlar “Metodika Gosudarstvennogo sortoispitaniya selskoxozyaystvennix kultur”, “Dala tajribalarni o‘tkazish uslublari” (O‘zPITI) asosida olib boriladi. Soya hosili ma’lumotlari B.A.Dospexovning “Metodika polevogo opita” manbasidagi dispersion tahlil uslubi hamda kompyuter dasturi yordamida matematik-statistik tahlil qilish uslubiy qo‘llanmalariga rioya qilingan holda o‘tkaziladi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish, sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish, global iqlim o‘zgarishlari kuzatilayotgan sharoitda mavjud suv manbalaridan oqilona foydalangan holda ekologik toza mahsulot yetishtirish bugungi kunning dolzarb talablaridan hisoblanib buning uchun ekinlarning talabiga mos ravishda sug‘orish usuli va tartibini qo‘llash talab etiladi.

Ta’kidlash joizki, inson organizmi maromida faoliyat ko‘rsatishi uchun oqsilga talab bir kunda uning vaznining har bir kilogrammi uchun 0,7 gr dan kam bo‘lmasligi lozim. Keyingi yillarda oziq-ovqat maxsulotlari va chorva uchun yem ishlab chiqarishning jadallashishi soya doni yetishtirishni ko‘paytirishni taqozo etmokda.

Soyadan ishlab chiqariladigan asosiy mahsulotlar - bu soya uni va soya moyidir. Soya uni qandolatchilik mahsulotlari, to‘ldiruvchilar, go‘sht, sut, pishloq o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Moyi esa oziq-ovqatda, mayonez, margarin ishlab chiqarishda ishlatiladi. Ko‘pgina olimlar va ishlab chiqaruvchilar “soya - oziq-ovqat, yem-xashak va kelajak” deyishadi. Soya yordamida to‘la qimmatli o‘simlik oqsili ishlab chiqarish muammosi hal etiladi. So‘ngi yillarda soya yetishtiriladigan maydonlar keskin ko‘paydi, natijada soya ekinini asosiy maydonlarda yetishtirish, uning agrotexnikasi, sug‘orish usuli va sug‘orish tartibi bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borishni talab yetadi.

Tuproqning granulometrik mexanik tarkibi. Tuproqning tuzilishi va tarkibi.
Tuproqning texnologik xossalari.
Tuproqning suvga chidamlilik mikro va mikroagregatlar tarkibi.
Tuproqni cheklangan dala nam sig‘imini aniqlash (CHDNS).
Tuproqni suv o‘tkazuvchanligini aniqlash
Tuproqni hajm massasi, solishtirma vazni va g‘ovaklik darajasi.
Tuproqni mikroagregatlar va granulometrik tarkiblari.
Tuproqni agrokimyoviy tavsifi (chirindi, SO_2, N, P,N-NO_3, P_2O_5, K_2O)
Tuproqni kalloid-il zarrachalarining guruxiy tarkibi.

Xulosa. Shamol eroziyasi jarayonlari, ularning tarqalgan hududlari, salbiy oqibatlari va ularga qarshi kurash bo‘yicha Respublikamizda va xorijda o‘tkazilgan ilmiy- tadqiqot ishlarining sharxi:

1. Tadqiqot obekti va o‘tkazish uslublari.
2. Dalani himoyalovchi, ixota daraxtzorlari polosalarining shamol eroziyasi jarayonlari, g‘o‘zaning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri.
3. Kuzgi bug‘doydan turli kenglikda qilingan kulis to‘siqlarining degradatsiya jarayonlari va g‘o‘zani o‘sishi, rivojlanishi hamda hosildorlikka ta’siri.
4. Tez va baland o‘suvchi qishloq xo‘jalik ekinlaridan barpo qilingan kulis to‘siqlarining degredatsiya jarayonlariga , g‘o‘zaning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri.
5. Iqlimning global isishi va suv tanqisligi sharoitida Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z va taqirsimon tuproqlari sharoitida degradasiyaga qarshi kurashda kulislardan foydalangan holda g‘o‘zaning “Buxoro-6”, “Buxoro-102”, kuzgi bug‘doyning “Ulug‘bek”, “Krasnadarskaya-99”, soyaning “Nafis” va “Uzbekskaya-6” navlaridan yuqori va sifatli paxta va don hosilini olish uchun egatlab va egat oralatib sug‘orish soni, sug‘orish muddati va meyorlari ishlab chiqilgan.
6. G‘o‘za navlarini CHDNSga nisbatan 70-70-70% tartibda egatlab sug‘orilganda tuproq hajm massasi amal davri oxirida 0-30, 0-50, 0-70, 0-100 sm qatlamlarda tegishlicha 0,04-0,04-0,05-0,05 g/sm^3 oshgan bo‘lsa, CHDNSga nisbatan 75-75-75% tartibda egat oralatib sug‘orilganda esa 0,03-0,03-0,04 g/sm^3 ga kamroq zichlangan holda suv o‘tkazuvchanlik egatlab sug‘orishda 789,2 m^3/ga, tegat oralatib sug‘orishda 900,4 m^3/ga ni tashkil etganligi aniqlangan.
7. Kuzgi bug‘doyning Krasnadarskaya-99 navini egat oralatib sug‘orish, kulislar bilan himoyalangan dalaning 3-variantda nazoratga nisbatan 6,2 s/ga ni, shunday kuzgi bug‘doyni egat oralatib sug‘orish, kulislar bilan himoyalangan dala 4-variantida nazoratga nisbatan 4,9 s/ga yuqoriligi kuzatilganligi aniqlangan.
8. Soyaning Uzbekskaya-6 navini egat oralatib sug‘orish, kulislar bilan himoyalangan dalaning 3-variantda nazoratga nisbatan 6,3 s/ga ni, shunday soyani egat oralatib sug‘orish, kulislar bilan himoyalangan dala 4-variantida nazoratga nisbatan 5,0 s/ga yuqoriligi kuzatilganligi aniqlangan.
9. Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z va taqirsimon tuproqlari sharoitida g‘o‘zaning Buxoro-6”, “Buxoro-102”, kuzgi bug‘doyning “Ulug‘bek”, “Krasnadarskaya-99”, soyaning “Nafis” va

"Uzbekskaya-6" navlaridan yuqori va sifatli paxta va don hosili yetishtirish uchun quyi dagilarga e'tibor qaratiladi.

G'o'zaning Buxoro-102 navini egat oralatib sug'orishda sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-70% tartibda, 1-4-1 tizimda, 700-750 m^3/ga sug'orish meyorida 6 marta sug'orish, mavsumiy sug'orish meyori 4200 m^3/ga bo'lishi;

- kuzgi bug'doyning Krasnadarskaya-99 navini egat oralatib sug'orishda sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 75-75-75% tartibda, 1-4-1 tizimda, 700-750 m^3/ga sug'orish meyorida 6 marta sug'orish, mavsumiy sug'orish meyori 4200 m^3/ga bo'lishi;

- soyaning Uzbekskaya-6 navini egat oralatib sug'orishda sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-70% tartibda, 1-4-1 tizimda, 700-750 m^3/ga sug'orish meyorida 6 marta sug'orish, mavsumiy sug'orish meyori 4200 m^3/ga bo'lishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ramazonov O, Yusufbekov O. "Tuproqshunoslik va dehqonchilik" oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2003 yil, 225-226 betlar.

3. Mirzajonov Q.M., Nurmatov SH., Isayev S.-Eroziyaga uchragan tuproqlarda azotli o'g'itlar samaradorligi // O'zbekiston qishloq xo'jaligi.-Toshkent, 2011,- № 6.- 32-33 b.

4. Mirzajonov Q.M., Nurmatov SH.N,. Tuproqni yuvilish jarayonlari va uni aniqlaydigan faktorlar // O'zbekiston agrar fani habarnomasi.-Toshkent.- 2008.- № 4.- 59-62 b.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14782751

REVMATOID ARTRITNI DAVOLASH, NOSTEROID YALLIG‘LANISHGA QARSHI PREPARATLAR

Qobilova Nodira Akmal qizi
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti talabasi
nosirovaamina53@gmail.com

Boymanov Asilbek Baxtiyor o‘g‘li
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti talabasi
Asilbekboymanov1@gmail.com

Boymurodova Muhabbat Botir qizi
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

Norquvvatova Sanobar Qodirjonovna
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti talabasi
norquvatovasanobar@gmail.com

ANNOTASIYA

Maqolada revmatoid artrit kasalligining kelib chiqish sabablari, qon tahlilllari, epidemiologiyasi, etiologiyasi, genetik (irsiy) moyilligi, tashxisi va davolash usullari haqida fikr yuritilgan. Kasallik irsiy moyilligi bo‘lgan shaxslarda immun tizimining buzilishiga olib keladigan infektsiya natijasida rivojlanashi haqida fikrlar keltirilgan.

***Kalit so‘zlar**: Revmatoid artrit, leykotsit, eritrosit, autoimmune, Gipotermiya, giperinsolyatsiya,*

ЛЕЧЕНИЕ РЕВМАТОИДНОГО АРТРИТА, НЕСТЕРОИДНЫЕ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫЕ ПРЕПАРАТЫ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются причины ревматоидного артрита, анализы крови, эпидемиология, этиология, генетическая (наследственная) предрасположенность, диагностика и лечение. Были высказаны предположения, что заболевание развивается в результате инфекции, вызывающей нарушение иммунной системы у лиц с наследственной предрасположенностью.

***Ключевые слова**: ревматоидный артрит, лейкоциты, эритроциты, аутоиммунные заболевания, переохлаждение, гиперинсоляция.*

Revmatoid artrit — murakkab autoimmun patogenezli noaniq etiologiyali eroziv-destruktiv poliartrit tipi bo‘yicha asosan kichik bo‘g‘imlarning shikastlanishi bilan kechadigan biriktiruvchi to‘qimalarning tizimli kasalligidir. Bugungi kunda kasallikning rivojlanishi sabablari noma’lum. Bilvosita ma’lumotlar: qonda leykotsitlar sonining va eritrositlar cho‘kish tezligining (ECHT) ortishi — jarayonning infektsion tabiatli ekanligiga ishora qiladi. Taxmin qilinishicha, kasallik irsiy moyilligi bo‘lgan shaxslarda immun tizimining buzilishiga olib keladigan infektsiya natijasida rivojlanadi; bunda to‘qimalarda saqlanadigan va bo‘g‘imlarning zararlanishiga olib keladigan immun komplekslari (antitanalar, viruslardan va boshqalardan iborat) hosil bo‘ladi. Ammo revmatoid artritni antibiotiklar bilan davolashning samarasizligi, ehtimol, bu taxminning noto‘g‘riligidan dalolat beradi.

Kasallik juda erta sodir bo‘ladigan yuqori nogironlik (70%) bilan ajralib turadi. Kasallik tufayli o‘limning asosiy sabablari infektsion asoratlar va buyrak yetishmovchiligi hisoblanadi.

Revmatoid artritni davolash asosan og‘riqni yengillashtirish, kasallikning rivojlanishini sekinlashtirish va jarrohlik aralashuvi yordamida zararlangan to‘qimalarni tiklashga qaratilgan. Zamonaviy vositalar yordamida kasallik erta aniqlansa, uning bo‘g‘imlar va boshqa to‘qimalarga yetkazishi mumkin bo‘lgan zarari sezilarli darajada kamayadi.

Kasallik birinchi marta o‘zini og‘ir jismoniy zo‘riqish, hissiy shok, charchoq, gormonal moslashuv paytida, noxush omillar yoki infektsiyaning ta’siri natijasida namoyon qiladi.

Epidemiologiya

Revmatoid artrit butun dunyoda tarqalgan bo‘lib, barcha etnik guruhlarga ta’sir ko‘rsatadi. Tarqalganligi 0.5-1% (keksalarda 5% gacha). Har yili 100 000 aholidan 5-50 tasi kasallikka yo‘liqadi. 2010 yilda 49 mingga yaqin odam revmatoid artritdan vafot etgan.

Kasallik boshlanadigan o‘rtacha yosh ayollar uchun 40-50 yoshni tashkil qiladi, erkaklar uchun esa biroz ko‘proq. Ushbu kasallikka ayollar erkaklarga qaraganda 3-5 marta ko‘proq chalinishadi.

Etiologiya

Autoimmun kasalliklarning ko‘pchiligida bo‘lgani kabi, revmatoid artrit rivojlanishida uchta asosiy omilni (revmatologik triada) arjatib ko‘rsatish mumkin:

Genetik (irsiy) moyillik

- Autoimmun reaktsiyalariga irsiy moyillik.
- MHC II sinfining ma’lum bir antigeni: HLA-DR1, DR4 tashuvchilarida ko‘proq kuzatiladi

Infektsion omil: Revmatik kasalliklarning gipotetik triggerlari

- Paramiksoviruslar — parotit, qizamiq, respirator-sintsitsial infektsiyalar, viruslar;
- Gepatoviruslar — gepatit B virusi;
- Gerpresviruslar — oddiy gerpes viruslari, o‘rab oluvchi lishay, sitomegalovirus;
- Epshteyn-Barr virusi;
- Retroviruslar — T-limfotrop virus.

Boshlovchi omillar

- Gipotermiya, giperinsolyatsiya, zaharlanishlar, mutagen dorilar, endokrinopatiyalar, stresslar va boshqalar.

Ayollarda emizish davomiyligi revmatoid artrit rivojlanish ehtimolini pasaytiradi. 24 oy va undan ko‘proq vaqt davomida emizish RA rivojlanishining xavfini ikki martaga kamaytiradi.

Tashxis

Qonni tahlil qilayotganda ECHT, revmatoid omil (revmo-faktor), trombotsitlar soni va boshqalar tekshiriladi. Eng ilg‘or tahlillar antitanalarning sitrulin-saqlovchi siklik peptidga titri, anti-CCP hisoblanadi. Ushbu indikatorning o‘ziga xosligi taxminan 90% ni tashkil etadi, shu bilan birga u revmatoid artrit bilan xastalangan bemorlar zardobining 79% ida bo‘ladi.

Diagnostik jihatdan muhim klinik xususiyatlar — yallig‘langan bo‘g‘imlar sirtidagi teri rangining o‘zgarishlari yo‘qligi, qo‘l barmoqlari bukuvchi yoki yozuvchilarining tendonsinovitlari rivojlanishi va amiotrofiyalar, tipik kaft deformatsiyalari («revmatoid bilak») shakllanishi.

Infektsiya mavjud bo‘lganda yoki unga shubha qilinganda (sil, iersinioz va hokazo) tegishli antibakterial preparat bilan terapiya kerak bo‘ladi. Bo‘g‘imlardan tashqari yorqin ko‘rinishlar bo‘lmaganda (masalan yuqori isitma, Felti sindromi yoki polinevropatiya) artikulyar sindromni davolash nosteroid yallig‘lanishga qarshi preparatlarni (NYQP) tanlash bilan boshlanadi. Bir vaqtning o‘zida eng ko‘p yallig‘langan bo‘g‘imlarga kortikosteroidlar kiritiladi. Kasallikning immunokompleks tabiati plazmaferez kurslarining o‘tkazilishiga ko‘rsatma beradi va bu aksariyat hollarda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu terapiya natijalarining beqarorligi bazisli vositalarni qo‘shilishiga ko‘rsatma bo‘lib hisoblanadi. Ushbu dori-darmonlar sekin ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun kamida 6 oy davomida qo‘llanilishi kerak, agar terapiya ijobiy ta’sir ko‘rsatsa, ular bilan davolanish yana davom ettiriladi (yillab).

Revmatoid artritni davolashda osteoporoz profilaktikasi — ichakda so‘rilishini oshirish va uning organizmdan chiqib ketishini kamaytirish yo‘li orqali buzilgan kaltsiy muvozanatini tiklash muhim o‘rin tutadi. Osteoporozga qarshi chora-tadbirlarning muhim tarkibiy qismi o‘zida ko‘p miqdorda kaltsiy saqlagan parhez hisoblanadi. Kaltsiy manbalari sut mahsulotlari (ayniqsa qattiq pishloqlar, ularning

100g miqdorida 600-1000mg kaltsiy bo‘ladi, shuningdek eritilgan pishloqlar; kamroq miqdorda kaltsiy tvorog, sut va smetanada mavjud), bodom, o‘rmon yong‘oqlari va yong‘oq, shuningdek vitamin D yoki uning faol metabolitlari bilan birgalikda kaltsiy preparatlari sanaladi.

Davolashda bo‘g‘imlarning maksimal harakatchanligini ta’minlash va mushak massasini saqlab qolish uchun mo‘ljallangan terapevtik mashqlar muhim ahamiyatga ega.

Fizioterapevtik muolajalar va sanatoriya-kurortli davolash ikkilamchi ahamiyatga ega va faqat artrit jiddiyligi yuqori bo‘lmaganida ishlatiladi.

Barqaror mono- va oligor artritda bo‘g‘imga oltin, ittriy va boshqalar izotopini kiritish orqali, yoki jarrohlik yo‘li bilan sinovektomiya amalga oshiriladi. Bo‘g‘imlarning barqaror deformatsiyalarida rekonstruktiv operatsiyalar o‘tkaziladi.

Tizimli medikamentoz terapiya to‘rt guruh preparatlarini qo‘llashni o‘z ichiga oladi:

1. Simptomatik davolash — nosteroid yallig‘lanishga qarshi preparatlar (NYQP) va glyukokortikosteroidlar (GKS),

2. Bazisli antirevmatik preparatlar,

3. Sitostatik immunosupressantlar bilan gen-muhandislik biologik (kasallik kechishini nazorat qiluvchi) preparatlar.

Zamonaviy NYQP’lar araxidon kislotasi metabolizmining asosiy fermenti bo‘lgan siklooksigenaza (SOG) faolligini bostirish orqali sezilarli yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega. SOG-1 va SOG-2 deb ta’riflangan va prostaglandinlar (PG) sintezini boshqarishda turlicha rol o‘ynaydigan ikkita SOG izoshakllarining kashf qilinishi alohida qiziqish taqdim etadi. NYQP’lar SOG izoshakllarining faolligini bostirishi isbotlangan, ammo ularning yallig‘lanishga qarshi faolligi aynan SOG-2 ingibitsiyasiga bog‘liq.

Ko‘pchilik mashhur NYQP’lar avvalo SOG-1 faolligini bostirishadi, bu bilan indutsiyalangan NYQP gastropatiya (xususan, eroziya va yaralar hosil bo‘lishi), buyrak funktsiyalarining buzilishi, ensefalopatiya, gepatotoksiklik kabi asoratlar tushuntiriladi.

Shunday qilib, SOG‘ni bloklash tabiatiga qarab, NYQP’lar SOG-2 ingibitorlari («koksiblar») va noselektivlarga bo‘linadi.

Nisbatan selektiv bo‘lgan SOG-2 ingibitorlari vakillari meloksikam, lornoksikam va «oksikam»larning boshqa vakillari va nimesulid hisoblanadi. Yuqori selektiv SOG-2 ingibitorlari vakillari selekoksib va etorikoksib sanaladi. Ushbu preparat oshqozon-ichak tizimi tomonidan minimal nojo‘ya ta’sirga ega va shu bilan birga yuqori yallig‘anishga qarshi va analgetik xususiyatlarini saqlab qolgan bo‘ladi. SOG-2 ingibitorlari barcha dasturlarida NYQP’lardan foydalanishni talab etadigan revmatoid

artritni davolashning barcha kurslarida qo‘llanilishi mumkin. Terapiyaning boshlanishida yallig‘lanish jarayonining faol bo‘lganida meloksikam sutkasiga 15 mg dozada buyuriladi va keyinchalik qo‘llab-quvvatlovchi terapiya sifatida sutkasiga 7,5 mg dozagacha tushiriladi. Nimesulid 100 mg dozada bir kunda ikki marta buyuriladi.

Selekoksib — SOG-2 ning maxsus ingibitori — sutkasiga ikki marta 100-200 mg‘dan dozada buyuriladi. Keksa kishilar uchun preparatning dozirovkasini tanlash talab qilinmaydi. Ammo tana vazni o‘rtacha ko‘rsatkichdan (50 kg) past bo‘lgan bemorlarda davolashni tavsiya etilgan eng kam dozadan boshlash tavsiya etiladi.

Ikki yoki undan ortiq NYQP’larning birgalikda qabul qilinishidan qochish kerak, chunki ularning samaradorligi o‘zgarishsiz qoladi, nojo‘ya ta’siri esa kuchayadi.

Biologik vositalar

Revmatoid artritda sinovial membranalar katta miqdorda glyukoza-6-fosfatdegidrogenaza fermentini chiqaradi, bu esa hujayra membranasidagi disulfid bog‘lamlarni buzadi. Bunda hujayra lizosomalaridagi fermentlarning «sizib chiqishi» kuzatiladi va ular yon atrofdagi suyak va tog‘aylarni shikastlaydi. Bunga javoban organizm sitokinlarni ishlab chiqaradi, ular orasida eng taniqlisi o‘sma nekrozi omili (O‘NO) hisoblanadi. Sitokinlar tomonidan boshlab yuboriladigan hujayralardagi reaktsiyalar kaskadi kasallikning alomatlarini yanada kuchaytiradi. O‘NO bilan bog‘liq surunkali revmatoid yallig‘lanish ko‘pincha mehnatga layoqatsizlik va jismoniy nuqsonlarga olib keladigan bo‘g‘imlar va tog‘aylar shikastlanishiga sabab bo‘ladi.

Prognoz

Revmatoid artrit umr davomiyligini o‘rtacha 3-12 yilgacha qisqartiradi. 2005-yilda Mayo Klinikasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot revmatoid artritdan aziyat chekadigan bemorlarda boshqa xavf omillaridan qat’iy nazar (chekish, qandli diabet, alkogolizm, semizlik va yuqori xolesterin miqdori kabi), yurak kasalliklari rivojlanishi xavfi ikki barobar yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Yurak kasalliklari rivojlanishi xavfini oshiruvchi mexanizm noma’lum; surunkali yallig‘lanish mavjudligi muhim omil hisoblanadi. Ehtimol, yangi biologik vositalardan foydalanish hayot davomiyligini uzaytiradi va yurak-qon tomir tizimi uchun xavfni kamaytiradi hamda ateroskleroz rivojlanishini sekinlashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. Рейнберг С.А. Рентгено диагностика заболеваний костей и суставов. Издательство «МЕДИЦИНА», 1958. Т1. С. 366.

2. Окороков А. Н. “диагностика болезней внутренних органов” 2 том. Диагностика ревматических и системных заболеваний соединительной ткани. Диагностика эндокринных заболеваний: -М. Мед. лит., 2003.

3. Бобожонов С.Н. “Ички касалликлар” Тошкент– 2003йил. 465 –485бетлар.

4. Ситора Ш. А. Медицинская психология, принципы ее возникновения и история //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 77-81. https://doi.org/10.5281/zenodo.14498833

5. Almuratova, S. S. (2024). Revmatoid artrit va osteoartrozni davolash maqsadida qo‘llangan dori preparatlarining me’da osti beziga ta’siri. Educational research in universal sciences, 3(12), 198–202. https://doi.org/10.5281/zenodo.14498833

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14782787

GIDROTEXNIKA INSHOOTLARDAGI AVARIYALAR VA ULARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR (SARDOBA MISOLIDA)

Safarboyeva Gulniso Ilhom qizi
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Hayot faoliyat xavfsizligi kafedrasi 2-kurs talabasi
gulnisosafarboyeva4@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada gidrotexnik inshootlarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar hamda ularning oldini olish, bartaraf etish yo‘llari, gidrotexnik inshootlarining xavfsizligi hamda xavfsizlikni ta’minlashga qo‘yiladigan talablar ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari 2020-yil 1-may kunida Sirdaryo viloyati hududida joylashgan “Sardoba” suv omborida sodir bo‘lgan favqulodda vaziyat hamda ularni bartaraf etish tadbirlaridagi FVDTning harakatlari bundan tashqari amalga oshirilgan tadbirlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *avariya, gidrotexnik inshoot, xavfsizlik, toshqin, talofat, texnogen.*

ABSTRACT

This article examines possible emergencies in hydroelectric facilities as well as ways to prevent, eliminate them, safety of hydroelectric facilities, and safety requirements. In addition, on may 1, 2020, the emergency situation in the “Sardoba” reservoir, located on the territory of the Syrdarya region, as well as the actions of the Fvdt in the measures to eliminate them, were covered.

Keywords: *accident, hydraulic structure, safety, flood, loophole, man-made.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются возможные чрезвычайные ситуации на гидротехнических сооружениях, а также способы их предупреждения, ликвидации, безопасность гидротехнических сооружений и требования к обеспечению безопасности. Кроме того, освещены чрезвычайные ситуации, произошедшие 1 мая 2020 года на водохранилище “сардоба”, расположенном на территории Сырдарьинской области, а также действия Фвдт в мероприятиях по их ликвидации.

Ключевые слова: *авария, гидротехническое сооружение, безопасность, наводнение, жертва, техногенный.*

KIRISH

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarga 7 xil ko‘rinishidagi falokatlar kiradi, hamda bu falokatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktabrdagi 455-sonli qarorida “Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar tasnifi”da ko‘rsatib o‘tilgan. Bu falokatlardan biri gidrotexnik inshootdagi favaqulodda vaziyatdir. Gidrotexnika inshootlari-suv omborlari, to‘g‘onlari, daryolar, soylar, kanallar va kollektordagi to‘g‘onlar, daryolarning o ‘zanlarini to ‘suvchi inshootlar, suv oluvchi, suv o‘tkazuvchi, suv tashlash hamda qirg‘oqlarni himoya qilish inshootlari, gidroelektrostansiyalar, nasos stansiyalari. Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi-gidrotexnika inshootlarining fuqarolar hayoti, sog‘ligi va qonuniy manfaatlari, jismoniy hamda yuridik shaxslarning mol-mulki, atrof-muhit va xo‘jaligi obyektlari himoya qilinishini ta’minlash imkonini beruvchi holat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi paytda 53 ta suv ombori, daryo suvlarini iste’molchilarga taqsimlab beruvchi 150 dan ortiq suv to‘g‘onlari, 28122 km uzunlikdagi magistral kanallar va boshqa suv inshootlari mavjud. Bunday inshootlar har qanday favqulodda vaziyatlar yuz berganda (harbiy holatda ham, tinchlik davrida ham) katta xavf tug‘diradi. Gidrotexnika inshootlarning ayrimlari katta shaharlar va yirik aholi yashash joylari yaqinida joylashgan bo‘lib, yuqori darajadagi xavfli obyektlar hisoblanadi. Gidrotexnik inshootlari, ko‘rsatkichlariga ko‘ra har xil bo‘ladi:

1) **joylashgan o‘rniga ko‘ra:**

a) yer usti inshootlari (daryo, ko‘l, kanal va h.k);

b) yer osti inshootlari (o‘tkazuvchi quvurlar, tunellar va h.k).

2) **foydalanish maqsadiga ko‘ra:**

a) suv-energetika inshootlari;

b) suv ta’minoti inshootlari;

v) sug‘orish inshootlari;

g) chiqindi suvlarni chiqarish inshootlari;

d) baliqchilik xo‘jalik inshootlari va hokazo.

3**) vazifasiga qarab:**

a) GES lar va boshqa suv inshootlari (to‘g‘onlar va boshqalar);

b) suv o‘tkazish inshootlari (kanallar, tunellar, quvur o‘tkazgichlar);

v) tarnovlar, osma quvurlar va h.k.;

g) tashlandiq suv inshootlari (ortiqcha suvni chiqarish uchun).

Gidrotexnik inshootlarning buzilishi juda kata hududlarni, jumladan: shaharlar va aholi yashash joylarni, sanoat tarmoqlarini va moddiy resurslarni suv ostida qolishiga olib kelishi mumkin, oqibatda juda katta ham ma’naviy, ham moddiy zararlarni olib kelishiga sabab bo‘ladi. Gidrotexnik inshootlari quyidagi ta’sirlar natijasida buziladi:

1) tabiiy ofatlar oqibatida (zilzila, ko‘chki, jala yomg‘irlar yuvib ketish va boshqalar);

2) uskunalarning tabiiy yemirilishi va eskirishi;

3) inshootni loyihalash va qurishdagi xatoliklar;

4) suvlarni ishlatish qoidalarini buzilishi;

5) portlatishlar oqibatida (harbiy harakatlar, terrorchilik va boshqalar).

1-rasm. Gidrotexnika inshootlari hududi chegarasida obyektlar qurish taqiqlandi.

Gidrotexnik inshootlarining buzilishi natijasida muayyan oqibatlarga olib keladi, jumladan:

-Gidrotexnik inshooti o‘z vazifasini bajarmay qo‘yishi;

- suv to‘lqinini insonlarga zarar yetkazishi va turli inshootlarni buzilishi;

-hududlarni suv bosib, mol-mulkka, yerlarga, moddiy resurslarga va boshqa obyektlarga jiddiy moddiy zarar keltiradi.

Shuning uchun bunday inshootlardan foydalanuvchi tashkilotlar zimmasiga ularning xavfsizligini ta’minlash maqsadida “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi qonunining 8,9-moddalarida ko‘rsatib o‘tilgan majburiyatlar yuklab qo‘yilgan. Unga ko‘ra bunday xavfli obyektlarni loyihalash, qurish va ishlatish davomida xavfsizligini pasayish sabablarini tahlil etish, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan avariyani oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va bajarish, shuningdek bunday masalalar bo‘yicha favqulodda vaziyatlar tizimlari bilan hamkorlik qilish ta’kidlangan.

MUHOKAMA VA NATIJALARLAR

Jahon statistikasini hisobga olsak, so‘nggi 100 yil ichida o‘rtacha 1900-yildan beri beton to‘g‘onlarning har yili vayron bo‘lish va shikastlanish xavfi, 0,34 10-4 va 0,45 10-3 ni tashkil qiladi, bundan tashqari yillik barcha turdagi to‘g‘onlarning avariyalari natijasida inson qurbonlarining global xavfi 5.1 10-8. Baxtsiz hodisalarda inson qurbonlari va moddiy yo‘qotishlar zamonaviy to‘g‘onlarni tabiiy ofatlar oqibatlari bilan solishtirish mumkin. 2020-yil vatanimiz hayoti uchun eng og‘irli hamda sinovli yil bo‘lgan. Ro‘y bergan tabiiy ofatlar, texnogen avariyalar va pandemiyalar Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini real vaziyatda tezkor va samarali faoliyat ko‘rsatishni talab qildi. Jumladan, 1 may kuni “Sardoba suv ombori” to‘g‘onining (suv hajmi 922 mln.kub.m) 100 p/m uzunlikdagi qismi o‘pirilishi oqibatida Sirdaryo viloyatining Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlaridagi 4 ming 700 ta aholi xonadonlari, 77 ta ko‘p qavatli uylar, 40 ta ijtimoiy soha obyektlari, 34 ming gektardan ziyod ekin maydonlari, 24 ta ko‘priklar, yuzlab kilometr uzunlikdagi yo‘llar infratuzilmasi hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari suv toshqini ostida qolgan. Birlamchi hisob-kitoblarga ko‘ra, yetkazilgan zarar miqdori 1 trillion 500 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. Sirdaryo viloyatida suv toshqini bilan bog‘liq favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etishga FVDT tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning 21 ming nafar shaxsiy tarkibi, 3 ming 700 dan ortiq texnika va 200 ta motopompasi (jumladan, FVVning 1 ming 500 nafar shahsiy tarkibi, 135 ta maxsus texnika,140 ta motopompa) jalb etilgan bo‘lib, Sirdaryo viloyatida kechiktirib bo‘lmas tadbirlar amalga oshirildi. Maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasining shaxsiy tarkibi hamda avtotransport va maxsus texnikalari safarbar qilingan.

2-rasm. Sardoba suv ombori buzilishi.

Ichki ishlar, Mudofaa vazirliklari, Milliy gvardiya, FVDTga kiruvchi tashkilot va idoralar bilan olib borilgan tezkor harakatlar oqibatida 89 ming nafardan ortiq aholi xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilingan, 12 ta qayiq yordamida 207 nafar, Mudofaa vazirligi aviatsiyasi yordamida 87 nafar fuqarolarning hayoti saqlab qolingan. Suv toshqini jarayonida Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida sutkalik ishlaydigan qisqa raqamli call markazi ishga tushirilgan bo‘lib, 8 ming 150 ta murojaatdan 8 ming 80 tasi ijobiy hal etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishiga asosan, 6 aprel – 3 iyul kunlari Favqulodda vaziyatlar, Suv xo‘jaligi vazirliklari hamda Sirdaryo viloyati hokimligining 270 nafar shaxsiy tarkibi va 170 ta texnikasi, 100 dona motopompa yordamida Qozog‘iston Respublikasi Turkiston oblasti Jettisoy va Maqtaral tumanlarining Argibas, Firdavsiy hududidagi toshqin suvlaridan zarar ko‘rgan aholi punktlarida avariya-tiklash ishlarini olib borilgan.

3-rasm. Sardoba suv ombori orqali vujudga kelgan vayronagarchilik.

Gidrotexnik inshootlaridagi avariyalarda fuqarolarning xatti-harakatlari:

1) Suv ostida qoladigan hududdagi fuqarolarni, suv bosishi mumkin bo‘lgan hududlarni va suv bosish vaqtini shuningdek shikastlovchi omillarini (suv urib ketadigan to‘lqin balandligi va tezligini va boshqalarni) yaxshi bilishlari kerak;

2) Aholining hammasi suv bosish xavfi tug‘ilgandagi va suv bosgandagi xatti-hara - katlarga tayyorlangan bo‘lishlari kerak;

3) Aholining hammasi suv bosish ehtimoli borligi, suv bosish vaqti, uning chegaralari haqidagi va evakuatsiya tartibi haqidagi tavsiyalarni vaqtida olishi kerak;

4) Xavf haqidagi xabar (ogohlantirish) olinganda quyidagi ishlar qilinishi kerak:

- darhol hujjatlarni, qimmatbaho va kerakli buyumlarni, 2-3 kunlik oziq-ovqat va ichimlik suvini o‘zi bilan olish;

- uylarni ehtiyot holatda (gaz, suv, elektr ta’minotini o‘chirishi) qoldirishi kerak;

- chorva mollarini xavfsiz joylarga o‘tkazib qo‘yish;

5) Agar to‘satdan halokatli suv bossa:

- suvning to‘lqin zarbidan saqlanish uchun mustahkam qurilgan inshootlarning yuqori qismlariga chiqiladi;

- oldindan tayyorlangan qutqaruv vositasini (4-6 ta bir litrli plastmassa idishlari osilgan najot kamarini) taqib olishadi;

- agar odam imorat ichida (yuqori qismlarida) qolgan bo‘lsa, qayerdaligini belgilab, qutqaruvchilar yordamga kelishi uchun oq bayroq belgilari osib qo‘yiladi.

XULOSA

Gidrotexnika inshootlarining xavfsiz va samarali ishlashini ta’minlash uchun avariyalarni oldini olish, yaxshilash va xavfsiz ekspluatatsiyani ta’minlash juda muhim hisoblanadi. Shuningdek, har qanday avariyani bartaraf etish uchun ilg‘or texno-logiyalar yaratish va malakali mutaxassislar o‘qitish lozim. Gidrotexnika inshootlarining muvaffaqiyatli ishlashi uchun nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ekologik hamda ijtimoiy jihatdan ham ahamiyatli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi Sirdaryo viloyatida joylashgan «Sardoba suv ombori» to‘g‘onida yuzaga kelgan favqulodda hodisa oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5569-son Farmoyishi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2020-yildagi 154, 156-sonli buyruqlari.

3. Постановление Кабинета Министров Республика Узбекистан «О мерах повышения бебзопасности работы и надежности эксплуататсии крупных и особо важных водохозяйственных объектов на период 1999-2005гг.» Ташкент, 1999

4. Bakiev M.R., Kirillova E.I., Xo‘jaqulov R. Bezopasnost gidrotexnicheskix soorujeniy. Tashkent, 2008, 110 s.

5. Gapparov F.A., Talipov SH. G‘, Adjimuratov D.S. Suv omborlaridagi inshootlar texnik holatini kuzatish va baholashni o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent. 2012 y. 80-bet

6. Yangiev A.A., Gapparov F.A., Adjimuratov D.S. Rezultatы monitoringa formirovaniya vnezapnых navodneniy v gorax i predgornых rayonax Uzbekistana. Arxitektura. Qurilish. Dizayn. jurnali, Toshkent. №4(19).2019. 136-138 bet.

7. www.lex.uz

8. www.springer.com

9. Bakiyev M. R., Yangiyev A. A., Qodirov O. Gidrotexnika inshootlari. T., «Fan», 2002.

10. Гидротехнические сооруж ения./П од ред.П .П .Розанова.М ., «Стройиздат, 1978.

11. Xusanxojayev Z. X. «Suv omborlaridagi gidrotexnika inshootlari», T., «Mehnat», 1986.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14782803

POPULARIZING THE USE OF UNMANNED AERIAL VEHICLES IN AGRICULTURE IN UZBEKISTAN

Teshaboyev Oybek
Andijon mashinasozlik instituti, t.f.f.d (PhD),
teshaboyevoybek1112@gmail.com

Rasulov Shermukhammad
Master Student of Kangwon National University, Korea

ABSTRACT

The integration of Unmanned Aerial Vehicles (UAVs) into agriculture represents a transformative opportunity for Uzbekistan, a nation where agriculture plays a critical role in the economy and rural livelihoods. This paper explores the potential of UAVs to address pressing agricultural challenges, such as optimizing water usage, improving crop monitoring, and enhancing yield productivity. The study examines current UAV adoption trends, identifies barriers to widespread implementation, and evaluates the economic and environmental benefits. By leveraging UAV technology for precision agriculture, Uzbekistan can improve resource efficiency, reduce labor costs, and promote sustainable farming practices. This research emphasizes the need for government support, affordable access to UAVs, and farmer education programs to popularize UAV usage. Recommendations are provided for policy frameworks and strategies to accelerate the adoption of UAVs, ultimately contributing to the modernization and sustainability of Uzbekistan's agricultural sector.

Keywords: *Unmanned Aerial Vehicles (UAVs), drones in agriculture, precision agriculture, agricultural technology, optimization, irrigation management, modern farming.*

Introduction

Agriculture is a cornerstone of Uzbekistan's economy, accounting for a significant share of the country's GDP and employing a large portion of its workforce. However, the sector faces numerous challenges, including inefficient resource utilization, outdated farming techniques, and the impacts of climate change. In recent years, technological advancements have emerged as critical tools for addressing these

challenges, with Unmanned Aerial Vehicles (UAVs) offering a promising solution for modernizing agricultural practices.[1]

UAVs, or drones, have revolutionized precision agriculture worldwide by enabling farmers to monitor crops, assess field conditions, optimize irrigation, and apply fertilizers and pesticides with pinpoint accuracy. Over the past 10-15 years, with high-end technology transformations from radio controlled model hobbyist's airplanes, drones are integrated with variety of functions(Vikram Puri, Anand Nayyar & Linesh Raja 2017). These innovations not only enhance productivity but also promote sustainability by reducing waste and conserving resources. For Uzbekistan, where efficient water management and improved crop yields are pressing concerns, the adoption of UAV technology could play a transformative role.[2]

Despite the potential benefits, the integration of UAVs in Uzbekistan's agricultural sector remains limited. High costs, a lack of awareness, insufficient technical expertise, and regulatory hurdles are key barriers to widespread adoption. This paper aims to explore the opportunities and challenges associated with popularizing UAV use in agriculture across Uzbekistan. By examining global best practices and tailoring solutions to the local context, this study seeks to provide actionable recommendations to foster the development of a modern, efficient, and sustainable agricultural industry in Uzbekistan.[3]

The Importance of Agriculture in Uzbekistan. Agriculture is a fundamental part of Uzbekistan's economy, contributing approximately 25% to the national GDP and providing employment for nearly half of the workforce, particularly in rural areas. The sector plays a vital role in the nation's economic stability, food security, and social development.

Cotton, often referred to as "white gold," has historically been a key export commodity for Uzbekistan, making it one of the world's largest producers and exporters of cotton. However, the country is shifting towards agricultural diversification, emphasizing the cultivation of grains, fruits, and vegetables to reduce dependence on cotton and enhance resilience in the face of global market fluctuations.[4]

In addition to export crops, agriculture in Uzbekistan ensures food security by producing essential staples such as wheat, fruits, and vegetables. The country is also known for its production of melons, apricots, and cherries, which contribute significantly to food exports and help stabilize domestic food prices.

The sector's reliance on irrigation due to Uzbekistan's arid climate presents a major challenge. Water scarcity, soil salinization, and inefficient water management practices threaten agricultural productivity. However, the government has prioritized investments in modernizing irrigation systems and adopting water-conserving technologies to ensure sustainable agricultural practices.

Agriculture also drives rural development, fostering job creation, infrastructure improvements, and higher living standards in rural areas. Investments in agricultural technologies, such as precision farming and drone monitoring, are improving productivity and efficiency, while also helping farmers manage resources more sustainably. The integration of modern agricultural techniques is crucial for maintaining the sector's growth and ensuring environmental sustainability.

Culturally, agriculture is deeply woven into the fabric of Uzbekistan's identity. Traditional farming practices, local festivals, and cuisine all reflect the strong connection to the land. Balancing innovation with the preservation of this agricultural heritage will be essential for the sustainable development of the sector.

In conclusion, agriculture remains vital to Uzbekistan's economy and society. While challenges such as water scarcity and outdated methods persist, ongoing efforts to diversify crops, modernize infrastructure, and implement sustainable practices will strengthen the sector's long-term viability. Agriculture's role in ensuring food security, providing livelihoods, and driving rural development will remain central to Uzbekistan's future growth.[5]

Unmanned Aerial Vehicles in Agriculture Currently, the practical applications for drones are expanding from hobbyists to industries and other areas like agriculture etc. Among several promising fields, agriculture is considered one of the most significant areas where diverse solutions with advanced features are essential to address various challenges faced by farmers and enhance crop yields. Below are the key applications and benefits of utilizing drones in agriculture, enabling efficient execution of daily farming tasks:

Drones are advanced, reliable tools that allow farmers to assess field conditions at the start of the cropping season. By generating 3D soil maps, drones assist in planning for seed plowing and provide valuable insights for irrigation and managing nitrogen levels, ultimately supporting better crop growth. This can help to reduce costs associated with over-fertilization, over-watering, and other inputs, while also increasing crop yields. Agriculture drones can help to save labor costs by reducing the need for manual intervention in farming operations. For example, drones can be used for crop monitoring, mapping, and analysis (Agriculture Drones Market, n.d.).[6,7]

Fig.1 Drone Agricultural Analysis

Additionally, drones can save time by delivering real-time insights into crop health and productivity. This enables farmers to make prompt decisions regarding irrigation, fertilization, and other agricultural activities. In summary, drones offer a cost-efficient solution for farmers aiming to enhance their operations and boost crop yields.

The precise application of pesticides, fertilizers, and water, guided by drone technology, contributes to increased agricultural productivity and improved crop quality. Drones can identify areas with pests and weeds with 95% accuracy, allowing farmers to treat only the targeted areas of their crops. Studies show that traditional methods (hand or tractor-driven) use 30% more pesticides and fertilizers than usual (Qodirov, S. X. 2024). Drones can analyze the condition of crops and soil, assess humidity levels and air temperature, and accurately calculate the amount of water needed for plants.

Some drones are equipped with pneumatic firing devices that can shoot seed pods directly into the soil. This eliminates the need for manual labor and speeds up the planting process. A report from Stanford University indicates that drone planting can be up to 5 times faster than traditional methods (Shawky, M. 2023) [8].

Fig.2 Drone-Based Seed Planting

In an environment where water is gold, the ability to optimize its use is invaluable. Drones enable what's known as "precision irrigation," ensuring that each plant receives the exact amount of water it needs. In Qatar, for instance, this has led to a staggering 30% reduction in water usage for agricultural practices (Shawky, M. 2023).

Crop Health Monitoring: Drones equipped with infrared, NDVI, and multispectral sensors enable farmers to monitor crop health effectively. These technologies provide insights into factors like transpiration rates, sunlight absorption, and overall plant vitality, facilitating timely interventions for improved yield.

Challenges and Opportunities in Integrating UAVs into Uzbekistan's Agricultural Sector. Despite the clear potential benefits of Unmanned Aerial Vehicles (UAVs) in revolutionizing Uzbekistan's agricultural practices, their widespread adoption remains limited. Several factors hinder the full integration of UAV technology into the country's agricultural sector, but with the right approach, these challenges can be overcome. By examining these barriers and understanding global best practices, the sector can move towards the successful incorporation of UAVs, leading to a more efficient, modern, and sustainable agricultural industry.

One of the most significant barriers to the adoption of UAVs in Uzbekistan's agricultural sector is the high initial investment required to purchase and maintain drone technology. Many farmers, particularly those in rural areas, may not have the financial resources to invest in advanced UAV systems. This is exacerbated by the costs associated with training personnel to operate the drones and manage the data they collect. For smallholder farmers, the return on investment might not seem immediate or guaranteed, which makes them hesitant to adopt these technologies.

However, as the global UAV market continues to expand, drone prices are expected to decrease over time. Additionally, government subsidies, grants, or partnerships with technology providers could help alleviate the financial burden for farmers, making UAVs more accessible to a wider population.

Another challenge is the limited awareness of UAV technology among farmers and agricultural professionals in Uzbekistan. Many in the sector may not be fully aware of the capabilities and advantages that drones can bring to agriculture. UAVs can assist with crop monitoring, precision spraying, soil analysis, irrigation management, and more. However, without sufficient knowledge about how drones can improve efficiency and yield, many farmers remain skeptical or unaware of the benefits.

To address this, education and awareness campaigns are crucial. These could include training workshops, demonstrations, and pilot programs that allow farmers to experience firsthand the advantages of UAVs. Collaboration with agricultural universities, research institutions, and international organizations could play a significant role in educating the next generation of farmers and agri-tech professionals.

The use of UAVs requires technical knowledge for both operation and data analysis. Farmers need training not only in flying drones but also in interpreting the data collected, such as multispectral imaging, crop health assessments, and field mapping. There is currently a shortage of skilled professionals who can provide such expertise in rural Uzbekistan, and this gap limits the effective integration of UAVs in the agriculture sector [9].

Building local technical capacity through specialized training programs and partnerships with technology providers can bridge this gap. Universities and technical institutes can collaborate with drone manufacturers to design curricula that cover drone operation, data interpretation, and maintenance. This would provide a steady supply of skilled labor for the sector, making drone adoption more feasible.

The regulatory environment for UAVs in Uzbekistan is still developing. Current laws and regulations related to drone use are not fully adapted to the specific needs of the agricultural sector. In many cases, complex licensing requirements, restricted airspace, and unclear legal frameworks can deter farmers from adopting UAV technology. Additionally, there is limited government support in terms of creating a regulatory framework that facilitates the widespread use of UAVs in agriculture.

To overcome this barrier, it is essential for the government to work closely with stakeholders in the agricultural, aviation, and technology sectors to establish clear and flexible drone regulations. These regulations should be tailored to the needs of farmers and should encourage innovation while ensuring safety. Simplified procedures for licensing, flight permissions, and airspace management can help expedite the adoption of UAVs in agriculture.

The effective use of drones in agriculture generates vast amounts of data that need to be processed, analyzed, and stored. This requires advanced data management systems and infrastructure, which may not be readily available in many parts of Uzbekistan. Farmers may struggle to manage and interpret complex datasets, particularly without the necessary tools and software.

One potential solution is the development of accessible, user-friendly platforms that help farmers analyze the data gathered by UAVs. Partnerships with technology companies can facilitate the creation of software that simplifies data processing and provides actionable insights. Additionally, improving internet connectivity in rural areas is essential for real-time data transmission and cloud-based data storage.

Globally, countries such as the United States, China, and Japan have successfully integrated UAVs into their agricultural sectors. These countries have leveraged drones for precision agriculture, improving crop yield, reducing waste, and optimizing resources like water and fertilizer. Uzbekistan can learn from these global best practices by adapting them to its unique agricultural environment.

For instance, pilot projects and case studies showcasing successful UAV applications in similar climates and agricultural conditions could provide valuable insights. Collaborating with international agencies and drone manufacturers who have experience in large-scale agricultural drone deployments can help identify cost-effective solutions and best practices that align with Uzbekistan's agricultural needs.

Despite the challenges, there are numerous opportunities for integrating UAVs into Uzbekistan's agricultural sector. Drones can help farmers optimize irrigation practices by providing real-time data on soil moisture levels, allowing for more efficient water use in a country where water scarcity is a major issue. UAVs can also help with the early detection of pests and diseases, which can reduce crop loss and minimize the use of harmful pesticides.

Furthermore, by enabling precision agriculture, UAVs can contribute to sustainable farming practices. Drones can help farmers apply fertilizers and pesticides more accurately, reducing environmental impact and lowering operational costs. The ability to monitor crops from the sky also provides farmers with valuable insights into crop health, helping them make informed decisions that improve yield and quality [10].

Conclusion.

In conclusion, while there are significant barriers to the widespread adoption of UAVs in Uzbekistan's agricultural sector, there are also considerable opportunities to integrate this technology into the farming industry. Overcoming challenges related to cost, awareness, technical expertise, and regulation will require a concerted effort from the government, agricultural professionals, and the technology sector. A crucial step in this process is the preparation of educated professionals by universities and technical institutions, which can play a key role in equipping the workforce with the necessary skills to operate and manage UAV technology effectively. By incorporating UAV-related courses and programs into agricultural and engineering curricula, universities can help foster a generation of skilled experts who can drive innovation in the sector. Furthermore, by leveraging global best practices and developing tailored solutions, Uzbekistan can unlock the full potential of UAVs, transforming its agricultural industry into a more modern, efficient, and sustainable sector.

REFERENCES

1. Puri, V., Nayyar, A., & Raja, L. (2017). Agriculture drones: A modern breakthrough in precision agriculture. *Journal of Statistics and Management Systems*, 20(4), 507-518. https://doi.org/10.1080/09720510.2017.1395171
2. (n.d.). Agriculture drones market size, share, growth, and trends. *Fortune Business Insights*. Retrieved January 18, 2025, from https://www.fortunebusinessinsights.com/agriculture-drones-market-102589
3. Qodirov, S. X. (2024). Qishloq xo‘jaligida dronlardan foydalanish samaradorligi. *Conference on the Role and Importance of Science in the Modern World, 01*(10), 24. Retrieved from https://universalconference.us
4. Lee, C. H. S., Phang, S. K., & Mun, H. K. (2021). Design and implementation of an agricultural UAV with optimized spraying mechanism. *MATEC Web of Conferences*, 335, 02002. https://doi.org/10.1051/matecconf/202133502002
5. Yang, S., Yang, X., & Mo, J. (2018). The application of unmanned aircraft systems to plant protection in China. *Precision Agriculture*, 19, 278–292. https://doi.org/10.1007/s11119-017-9516-1
6. Morley, C., Bradley, J., Hartley, R., Herries, D., & MacMorran, D. (2017). The potential of using unmanned aerial vehicles (UAVs) for precision pest control of possums (Trichosurus vulpecula). *Rethink Ecology*, 2, 27–39. https://doi.org/10.3389/reec.2017.00027
7. Shawky, M. (2023, October 13). How drones are revolutionizing farming practices in the Middle East. *LinkedIn*. Retrieved January 18, 2025, from https://www.linkedin.com
8. O. Teshaboev Determination of the laws of motion of the drive-reducer and screw shaft of a screw conveyor machine unit. (2024). Scientific and technical journal "Mechanical Engineering" 4, 42-47. https://journal.andmiedu.uz/index.php/mashinasozlik/article/view/114
9. O. Teshaboev Analysis of the results of comparative tests of a cleaning structure made of fiber with the recommended modernization of the screw conveyor. (2024). Scientific and technical journal "Mechanical Engineering", 4, 82-85. https://journal.andmiedu.uz/index.php/mashinasozlik/article/view/13
10. Djuraev, A. D., Yuldashev, K. K., & Teshaboyev , O. A. (2022). Determination of radial speed in screw conveyor shafts based on experimental research. Research and education, 1(8), 191–198. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/re/article/view/918

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14782815

REVMATOID ARTRIT DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASHNING AYRIM JIHATLARINI O‘RGANISH

Soliyev Muhammadqodir Abdugaffor o‘g‘li
Andijon Davlat tibbiyot instituti magistranti

dotsent **Soliyev Dilmurod Qodirovich**
t.f.n **Soliyev Alisher Qodirovich**
Ilmiy rahbarlar: Andijon davlat tibbiyot instituti
Oilaviy shifokorlar tayyorlash kafedrasi o‘qituvchilari

ANNOTATSIYA

Revmatoid artrit - hozirgi vaqtda bu kasallik nafaqat sog‘liqni saqlash tizimining, balki jahon hamjamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biriligicha qolmoqda. Misol uchun dunyo bo‘ylab 18 million inson revmatoid artrit bilan kasallangan.Birgina Buyuk Britaniyada har yili Revmatoid artritning 24 500 dan ortiq yangi holatlari aniqlanadi. 2029 - yilga borib yangi tashxis qo‘yilgan holatlar 25 400 dan ortishi kutilmoqda. 2000-2019 yillar oralig‘ida kasallanish soni 100 000 kishiga 58.4 dan 94,0 gacha ko‘tarilgan

Kalit so‘zlar: *Revmatoid artrit, ASSP, C- reaktiv oqsil, revmatoid faktor.*

STUDYING CERTAIN ASPECTS OF THE DIAGNOSIS AND TREATMENT OF RHEUMATOID ARTHRITIS

ABSTRACT

Rheumatoid arthritis remains not only a concern of the healthcare system but also one of the socio-economic issues of the global community. For example, around 18 million people worldwide suffer from rheumatoid arthritis. In the United Kingdom alone, more than 24,500 new cases of rheumatoid arthritis are diagnosed each year. By 2029, the number of newly diagnosed cases is expected to exceed 25,400. Between 2000 and 2019, the incidence rate rose from 58.4 to 94.0 per 100,000 people.

Keywords: *Rheumatoid arthritis, ACCP, C- reactive protein, rheumatoid factor.*

KIRISH.

Revmatoid artrit- murakkab autoimmun patogenezli noaniq etiologiyali eroziv-destruktiv poliartrit tipi bo‘yicha asosan kichik bo‘g‘imlarning shikastlanishi bilan kechadigan biriktiruvchi to‘qimalarning tizimli kasalligidir.Kasallik birinchi marta o‘zini og‘ir jismoniy zo‘riqish, hissiy shok, charchoq, gormonal moslashuv paytida, noxush omillar yoki infektsiyaning ta’siri natijasida namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Annotatsiya: *Pichoqchilik- bu temir yoki boshqa metal buyumga ishlov berib, unga bezak berish san'atidir. Maqolada pichoqchilik san'atining tarixdan to hozirgi kunga qadar rivojlanishi, uning badiiy bezaklariga ta'sir ko'rsatgan omillar, O'zbekistondagi maktablari, ulardagi an'analari va yangiliklar bayon etiladi.*

Boshqa amaliy san'at yo'nalishlaridan ajralib turuvchi soha, temirga ishlov berish ya'ni pichoqchilik O'zbekistonda o'z maktablariga ega bo'lib, hunarmandchilikning mahalliy an'analarini o'zida saqlab kelmoqda. Nodir bezakli pichoqlar yasashda o'zbek ustalariga teng keladigani yo'q. Uning tarixi insoniyatning eng qadimgi tarixi bilan bog'liq bo'lib, saqlanib qolgan namunalar ushbu san'atning o'rta asrlardan keng taraqqiy etgani, pichoq, xajar va qilichlar ko'rinishida rivojlanganidan darak beradi. Pichoqchilik tarixi bo'yicha M.YE.Masson, Y. A Zadneprovskiy, O. A. Papaxristu kabi olimlarning tadqiqodlarida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek S.Ibroximov, S.Bulatova, Z.Esonovlar xam o'z tadqiqotlarida pichoqchilik soxasiga doir tarixiy va etnologik ma'lumotlarni keltirib o'tilgan.

Pichoqchilik bu eng birinchi paydo bo'lgan amaliy san'at yo'nalishlridan biri bo'lib qadimda ilk sivilizatsiya paytida o'z ehtiyojlari yoki himoya qilish uchun foydalanganlar. Ilk pichoqlar odatda tosh, hayvon yoki inson suyagi, yog'ochlardan bo'lgan. Keyinchalik bu san'at yo'nalishi asrlar davomida takomillashishining natijasida temir, mis, bronza va po'latdan yasaladi, lekin eng birinchi temirning paydo bo'lishi pichoqchilik san'atida katta inqilobga sabab bo'ladi. Qadimda pichoqlar orqali odamlar o'zlarini himoya qilishganini, hattoki ular bizni turli xil yovuz ruhlardan asraydi degan diniy tushunchalar ham bo'lgan. Buni biz o'sha davrda topilingan pichoqlarning bezaklari yoki g'orlardagi devoriy suratlari, ibodat bilan bog'liq ekanligini bilamiz. "Dandon sopli pichoq" va "karkesopli pichoq" bunga misol bo'la oladi, chunki ularni qadimdan ilohiy deb bilishgan va bu keyinchalik turli xil urf-odatlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Misol uchun agar pichoq uyda saqlansa o'g'il farzand tug'iladi deb ishonishgan.

Har bir yasalgan pichoqni o‘zining texnikasi, naqshlari va uslubi orqali qayerda ishlab chiqarilganligini bilib olsa bo‘ladi. Pichoqlardan turli xil maqsadlarda foydalanilganligi uchun ham uning turlari ko‘p, Masalan, jangovar pichoqlar, sayohlarga mo‘ljallanga cho‘ntak pichoqlari, oshxona pichoqlari, o‘tkir tig‘li qurollar va diniy marosimlarga mo‘ljallangan hamda rassomlar uchun alohida qalam ochishda foydalanadigan pichoq turlari bor.

Markaziy Osiyo hududlarida pichoqlar erkaklarning kuch-qudratining ramzi bo‘lgan, aynan qadimdan to hozirgi kungacha bu erkaklarning haqiqiy kuchining belgisiga aylangan. O‘zbekistonda pichoqchilik san’ati qadimdan gullagan bo‘lib bunga Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa va boshqalarda olib borilga arxeologik qazishmalar natijasida miloddan avvalgi 2- ming yillikga oid pichoq namunalari topilgan. Bu keyinchalik pichoqchilikda turli xil mahalliy an’analarga xos maktablar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. 6-12-asrlarda pichoq yasash rivojlanib, unga turli xil bezak berish texnologiyalari o‘zgaradi. 15-17-asrlarda yonga osib yuriladigan pichoq turlari paydo bo‘ladi, asosan podshohlarda va boy zodagonlar o‘zlarini ulug‘vor yoki salobatli ko‘rsatish uchun pichoqlarni shunday olib yurishni boshlagalar. Belga osib yuradigan pichoqlar turi Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlariga ishlanga miniatyura tasvirlaridan bilib olsak bo‘ladi.

O‘zbekiston xonliklar davrida ham hukmdorlar pichoqlari qimatbaho toshlar bilan inkrustiyatsiya qilinib bezak berilgan va ulardan faqatgina, yon tomonga osib, bezak sifatida foydalanishgan. Hukmdorlar pichoqlaridagi bezak sifatida foydalanilgan toshlar chetdan keltirilgan bo‘lgan, hamda pichoqlarni odatda yassi yoki uzunchoq shaklda ishlashgan. Pichoqlarni vazifasiga ko‘ra turlari bor aynan hukmdorlar uchun yasalgan pichoqlar alohida, harbiy soha uchun yasalgan pichoqlar ulardan ancha farq qiladi. Pichoqchilar ustaxonasi o‘z uylariga yaqin bo‘lishi uchun ularga alohida hududning bir qismini ajratib berishgan va barcha pichoqchilarning yashash joyi o‘sha yerda bo‘lgan. Bu joy hozirgachan mavjud bo‘lib “Pichoqchilar” mahalasi deb nomlanadi.

Keyinchalik pichoqchilikning o‘ziga xos maktablari paydo boladi. XIX-XX-asr pichoq ishlab chiqarish markazlari Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qashqadaryo, Surxandaryo, Xorazm viloyatlarida 20 ga yaqin markazlar bo‘lgan. Ular o‘zining ishlash texnologiyasi, ixchamligi, shakli va bezaklari bilan bir-biridan farq qiladi. Bu markazlarga Chust, Shahrihon, Qora suv, Qo‘qon, Xiva, Toshkent va boshqa pichoqchilik maktablari kiradi.

XX asrga kelib pichoq ishlab chiqarish zavodlari ham tashkil etilgan. Agar avvalari hunarmandlar ishlagan bo‘lsa bu davrda esa artellar tashkil qilinib, ustoz-shogird an’analari asosida jamoa tashkillashtirilgan. Shunga qaramay zavod va artellar

mahalliy maktablarning o’ziga xos badiiy uslubi, texnikasi va rang-barngligini yo’qolishi olib kelgan.

O’zbekiston mustaqillikka erishgan yillardan boshlab boshqa amaliy san’a turlari qatorida pichoqchilik yo’nalishni rivojlantirish maqsadida turli amaliy ishlar, mahorat darslari tashkillashtirilmoqda. Bu esa xar bitta viloyatning “ustoz-shogird” an’analarini tiklashga yordam bermoqda.

Pichqolar madaniy merosning tarkibiy qismi sifatida amaliy bezak naqshi sifatida ham namoyon bo’lgan. Misol uchun: kashtachilik, kulolchilik, me’morchilik kabi yonalishlarda pichoq naqshidan erkaklik qudrati, quvvati, nasl davomiyligi ramzi sifatida foydalaniladi. Temuriylar davriga kelib Xitoy chinnilari juda mashhur bo‘ladi va aynan bu davrda ularning chinnilariga taqlid qilib ular tan sulolasiga tegishli bo‘lgan “san sai” chinnisiga taqlid qilib ishlay boshlaydilar, va boshqa davlatlarga eksport qilishgan. Temuriylar davrida asosan ularning laganlarida pichoqning naqshi tushurilgan. Chinilarda yashil, sariq va oq ranglardan foydalanib, pichoqni ko‘pincha markazda tasvirlashadi. Va bu keyinchalik badiiy kulolchilik an’analariga aylanib hozirgi kulolchilik buyumlarida ham qolanilishini ko‘ramiz. Yoki tasviriy san’atning rangtasvir yo‘nalishida turli xil janrlar asosida chizilgan kartinalarda ko‘ramz. Misol uchun: Karavadjoning eng mashhur asarlaridan biridan “Ishoqning qurbonligi” dagi kabi diniy janr asosida chizilgan kartinalarda pichoqning tasvirini ko‘ramz. Bu kartinada Ibrohim o‘z o‘g‘li Xudoning buyrugi bilan Ishoqni qurbon qilmoqchi bo‘ladi va aynan bu paytda, uni Rabbiyning farishtasi kelib to‘xtatadi va o‘g‘lining o‘rniga qo‘zichoqni qurbonlik qiladi. Va aynan bu kartinada Ibrohim o‘g‘li Ishoqning boyniga tutib turgan pichoqning tasviri bor. Bunga o‘xshash tasvirlarni biz Sharq miniatyura tasvirlarida ham bor.

Pichoqchilik san’ati uzoq sharq mamlakatlari, O‘rta Osiyoda qadimdan rivojlangan. Keyinchalik Yevropa shaharlarida, temir pichoqlar haqidagi ma’lumotlar qadimgi yunon epik shoirlari Gomer va Gesiod asarlarida yozilgan. 14-asrda Germaniya, Angliya, Avstriya, Fransiyada pichoqchilikni kasb sifatida taqiqlab faqatgina oshxonalarda foydalanishga ruxsat berilgan. Yevropa amaliy san’atida pichoqchilik yasalish usuli va qisman ko‘rinishi, sharq mamlakatlari an’analarini yodga soladi, lekin ba’zi joylariga o‘zgartirishlar kiritilinganligi uchun u darajada sezilmaydi. Hozirgi kunda esa texnikasi va funksiyalari sharq mamlakatlaridan umuman farq qiladi.

Umuman olganda har bitta pichoqning yasalish texnikasi bo‘ladi. Usta tanlangan materialni oladi va unga kuchli zarbalar berish orqali pichoqning tig‘i o‘zida kerakli shaklini hosil qiladi. Pichoqning asosiy qismi tayor bo‘lgandan keyin, usta uni

izlarini tozalaydi va yuzasini to‘g‘irlab, muhr bosish ishi boshlanadi va aynan muhr bosish jarayonida usta o‘z iste’dodini ko‘rsatadi, ya’ni bu hunarmandning o‘z dashati hisoblanadi.

Keyingi ish bu pichoq uchun alohida tutqich yasash hisoblanadi, tutqichlarni asosan yog‘ochdan yoki suyaklardan yasashadi va unga ham alohida bezak berilib pichoqga o‘rnatiladi. Pichoq tutqichining ham turlari bolib bular: “Sukma dasta”, “Erma dasta”, “Naqshinkor dasta” va boshqalar. Oxirida ular uchun maxsus charmdan g‘ilof tikiladi va bu o‘tkir pichoqlarda kesib olmaslik va bezak uchun yasaladi, lekin asosiy maqsadi foydalanuvchiga zarar yetqazmalik bo‘lgan. Pichoqlarning tig‘ini bigiz, qalam, naqsh, naycha qalami kabi oyg‘ich qalamlar bilan bezatiladi. Pichoqlarni oyib naqsh berishda asosan bigizdan foydalaniladigan asbob, u ko‘kqalam hamda naqsh bigiz xilida bo‘ladi. Bu pichoqlar ustaning o‘ziga buyurtma qilishadi va ustaning o‘zi avlodan avlodga o‘tib kelayotgan an’ana asosida pichoqni yasaydi.

O’zbekistonda badiiy hunarmandchilik asosida ishlaydigan pichoqchi ustalar unchalik ko‘p emas. Misol uchun: Usta Shokir Kamalov Buxoro pichoqchilik maktabi vakili sanaladi. U 1946-yil tavallud topgan bo’lib, oliy malumotga ega, Buxoro pedagogika instituti, filologiya fakultetini bitirgan. SH.Kamolovni ota bobolari buyuk temirchi hunarmandlar bo‘lishgan. Shunday qilib u bolaligida temirchilikni yahshi o‘zlashtirgan, umuman olganda temirchilikdan tashqari u san’atni boshqa yonalishlarini ham o‘zlashtirgan va bu keyinchalik o‘z kasbida katta foyda olib kelgan. Usta mis ustidan zarb berish texnikasini yangilash orqali asrlar davomida an’anaga aylanib kelgan temirchilik uslubiga o‘zgartirishlar kiritadi. Institut davridanoq ko‘plab temirchilik kasbini professional darajada o‘zlashtirib olgandi va bir vaqtning o‘zida ko‘plab hunarmandlar ko‘rgazmalarda ishtirok etdi. Dastlabki yillarda oilaviy sharoit qiyinchilil tug‘dirdi. Temirchilik kasbi orqali pul topish qiyin bo‘lganligi uchun bor kuchini va hayotini shu kasbiga bag‘ishladi va natijada keyinchalik uning ishlari omma etiborini o‘ziga jalb qildi. Sh.Kamolov temirchilikning barcha yo‘nalishlarida ijod qilgan: qishloq xo‘jaligi asboblari, pichoqlar, qaychilar, chiroqlar, suvenirlar va hattoki metal haykalchalarni ilk ijod namunalari desak bo‘ladi. Lekin unga beriladigan asosiy buyurtma bu pichoqlar bo‘lgan, chunki pichoq boshqa temirdan yasalgan asboblardan farq qilgan va bu Buxoro maktabi paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Hozirgi kunda SH.Komolov o‘z o‘g‘li bilan birgalikda ustaxonada ish faoliyatligini olib borishmoqda. Ularning 30 xil turdagi temirchilik mahsulotlari bor, va ularning norasida pichoqlar alohoda o‘ringa ega. Usta o‘z farzandiga ota bobolarida o‘rgangan barcha temirchilik hunarmandchilikning barcha sir asrorlari o‘rgatib kelmoqda.

Chust pichoqchiligi o’ziga xosligi bilan boshqa markazlarga nisbatan ajralib turgan. Xususan Chust pichoqchi ustalari tomonidan yasalgan pichoqlarning uchi uchun va yuqoriga qarab, dastasi pastga qarab yasalgan. Bu kabi shaklda yasalgan pichoqlarni xaridorlari asosan qassoblar sanalgan. Bugungi kunda Chust pichoqchiligida o’ziga xos xunarmandchilik maktablari shakllanib bormoqda. Shulardan biri Ubaydullayev Raximjon pichoqchi sanaladi. U o’zining faoliyati davomida 30 dan ortiq shogirtlariga pichoqchilik sirlaridan saboq berib kelmoqda. Ubaydullayev Raximjon pichoqchilik maktabining 6 vakili sanaladi. Raximjon pichoqchi uyida pichoqchilikka oid uy muzey tashkil etgan. Ubaydullayev Raximjon pichoqchining o’g‘li Rayimjon pichoqchi xam otasidan pichoqchilik san’ati o’rganib oilaviy an’anani davom ettirmoqda.

200 yillik tarix an’anasiga ega Shahrixon milliy pichoqsozlik maktabining yetuk vakili Rahmatxo’ja Alixo’jayev sanaladi. Pichoqsoz XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida Shahrixon pichoqchilik san’atiga asos solgan pichoqchi usta Ismoilxo’ja sulolasining yettinchi avlod davomchisi sanaladi.O’zbekistonning yirik va nufuzli markazlaridan biri, Ustaning an’anaviy va betakror sayqal berilgan “Kumush sarbasta”, Brig sarbasta”, “Suqma”, “Chilmixa”, dastali “Qayqi”, “Qozoqcha”, “Tolbargi” va boshqa turdagi pichoqlari nafaqat respublikamizda, balki Yaponiya, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Germaniya, Hindiston, Amerika kabi xorijiy davlatlarda xalqaro, badiiy ko’rgazmalar, savdo yarmarkalari va xususiy savdogarlar orqali o’zbek milliy pichoqchilik san’ati namunasi sifatida tarqalgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, festival va ko’rgazmalarda xorijiy mutaxassislar e’tiborini Chust pichoq, Qorasuv pichoq, Shahrixon pichoq, Buxorcha pichoq, Poyto’g‘ pichoq, Qo’qon pichoqlari alohida tormoqda. SH. Kamolov, R.Alixo’jayev, R.Ubaydullayev kabi pichoqsozlar ajdodlardan saqlanib kelgan mahorat va zamonaviy usullarni uyg‘unlashtirgan holda o’z ijodiy malaka va an’analarni “ustoz-shogird” yondashuvida davom ettirmoqdalar. Ularning hunarlari va ijod namunalari bugungi yosh ustalar orasida yuksak did, beqiyos mahorat, kasbga muhabbat hamda buyuk qadriyatlar ramzi bo’lib qolmoqda.

Foydalanilgan manbalar:

1. Xakimov A. O‘zbekiston amaliy san’ati: an’analar va inovatsiyalari. – Toshkent: 2004

2. Bulatov S. O’zbekiston xalq amaliy san’ati. – Toshkent: 1991.

3. Mahmudov A. Chust pichoqligi tarixi, o’ziga xosligi va an’analari / O’tmishga nazar. 6 jild. 9 son. – Toshkent: B. 44-50.

4. Култашева, Н. Д. (2023). КУЛОЛЧИЛИК РИВОЖИДА НАРЗУЛЛАЕВ СУЛОЛАСИНИНГ ЎРНИ. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(3), 458-464.

5. Хайитбобоева, КП (2021). Исследование проблем традиций и инноваций в современном узбекском народном искусстве. *Американский журнал социальных наук и образовательных инноваций* , *3* (11), 14-20.

6. Askarova, Z., Rakhmatullaeva, A., Khaitbabaeva, K., & Kabilova, F. (2023). Artistic Expression of the Image of Women in Ancient and Medieval Art in Central Asia. SPAST Abstracts, 2(02).

7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Pichoqchilik,

8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Chust_pichog%27i

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14833993

NEFT VA GAZ KONLARINI QAZIB OLISH VA LOYIHALASHTIRISH

Omonov Suhrob Jamshid o‘g‘li
Toshkent davlat texnika universiteti 5-bosqich talabasi

Norqulov Shaxboz Samandar o‘g‘li
Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish kafedrasi assistenti

Annotatsiya. *Neft va gaz konlarini qazib olish va loyihalashtirish nazariyasi, geologiya va texnologiyalarning murakkab integratsiyasini o‘z ichiga oladi. Qazib olish jarayonida o‘rganish, baholash, texnik loyihalashtirish va ekologik xavfsizlik bo‘yicha qabul qilingan qarorlar asosiy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bunday jarayonlar iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *Skvajina, konlar, massivlar, kimyoviy ta’sirlar, atmosfera, zararli gazlar.*

OIL AND GAS FIELD DEVELOPMENT AND DESIGN

Annotation. *The theory of oil and gas field development and design involves the complex integration of geology and technology. In the extraction process, the decisions made based on exploration, evaluation, technical design, and environmental safety are of key importance. At the same time, such processes also have economic and social significance.*

Key words: *Well, fields, reservoirs, chemical effects, atmosphere, harmful gases.*

Neft va gaz – dunyoning energiya resurslari bozorida ulkan o‘rin tutadigan xom ashyolar hisoblanadi. Ularning qazib olinishi va undan samarali foydalanish uchun aniq va mukammal loyiha ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlash juda muhim ahamiyatga ega.

Neft va gaz, global energiya ehtiyojlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning qazib olish usullari texnologik rivojlanish va muhandislik yondoshuvlari bilan har yili yangilanib bormoqda. So‘nggi yillarda neft va gaz qazib olishda innovatsion texnologiyalar, jumladan, sun’iy lift texnologiyalari,

ma’lumotlarni tahlil qilish uchun aqlli sensorlar va sun’iy intellektning qo‘llanilishi orqali konlarni samarali boshqarish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Ushbu texnologiyalar yordamida qazib olish jarayoni yanada optimallashtirilmoqda va ekologik xavf kamaytirilmoqda.

Neft va gaz qazib olish usullari texnologiyaning rivojlanishiga qarab har yili yangilanib bormoqda. Har bir usulning o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo‘lib, ular turli konlarni ekspluatatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Suv osti burg‘ulash, gorizontal burg‘ulash, suv bosimi va kimyoviy usullar kabi texnologiyalar, neft va gaz qazib olishni yanada samarali va ekologik jihatdan xavfsiz amalga oshirishga yordam beradi. Biroq, bularning barchasi yuqori texnik bilimlar va innovatsion yondoshuvlarni talab qiladi.

Neft va gaz qazib olish ishlari, ko‘pincha konni o‘rganish bosqichidan boshlanadi. Bu bosqichda, geologik tadqiqotlar, seysmik izlanishlar va yer osti tuzilmalari o‘rganiladi. Konlarni o‘rganish jarayonida geologlar va muhandislar yer ostidagi resurslarni aniqlash, ularning xususiyatlarini o‘rganish va qazib olishning eng samarali usulini tanlash uchun turli metodlar va texnologiyalarni qo‘llaydilar.

Loyiha rejalashtirish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Konning o‘rganilishi**: Geologik tahlillar yordamida, yer ostida mavjud bo‘lgan neft yoki gazning o‘lchami, joylashuvi va boshqa texnik xususiyatlari aniqlanadi.
2. **Tajriba va sinov ishlari:** Birinchi navbatda, laboratoriya sinovlari o‘tkazilib, konning ekspluatatsiya imkoniyatlari o‘rganiladi. Bu bosqichda quyosh, suv va boshqa omillarni hisobga olish zarur.
3. **Loyiha rejalari va texnik shartlar:** Qazib olish jarayonining batafsil rejalari ishlab chiqiladi. Ushbu rejalarda, konning joylashuvi, neft va gazni olish texnologiyalari, xavfsizlik choralar va ekologik hisoblar kiritiladi.
4. **Tijorat va iqtisodiy baholash:** Konning foydaliligini baholash, ya’ni qazib olish jarayonining iqtisodiy samaradorligi, xarajatlar va daromadlarni tahlil qilish kerak.

Neft va gazni qazib olish usullari

Neft va gazni qazib olishda qo‘llaniladigan bir nechta usullar mavjud. Har bir usul konning xususiyatlariga, joylashuvi, kontexnik sharoitdan kelib chiqqan holda hamda boshqa omillarga qarab tanlanadi.Tanlangan har bir usullarning o‘ziga yarasha kamchilik va afzalliklari mavjud.

Vertikal burg‘ulash - bu an’anaviy qazib olish usulidir. Bu usulda, burg‘ulash asboblari vertikal yo‘nalishda yer ostiga tushiriladi va neft yoki gaz shu yo‘l bilan yer ustiga chiqariladi. Vertikal burg‘ulash, odatda konning yuqori qatlamlarida joylashgan resurslar uchun samarali hisoblanadi. Biroq, bu usulning samaradorligi past bosimli yoki yengil neft va gaz konlarida yuqori bo‘ladi.

1-jadval

Vertikal burg‘ulash	
Afzalliklari	**Kamchiliklari**
Oddiy va arzon, tez amalga oshiriladi va asosan kichik va o‘rta hajmdagi konlar uchun mos keladi.	Keng miqyosda unumdorlikni oshirish qiyin, katta hajmdagi konlar uchun mos emas.

Gorizontal burg‘ulash - vertikal burg‘ulashga nisbatan yanada samarali usul bo‘lib, yer ostiga gorizontal yo‘nalishda burg‘u burg‘ilanadi. Bu usul ko‘proq keng hududdan neft yoki gaz olishga yordam beradi va uning samaradorligi yuqori bo‘ladi. Ko‘pincha past bosimli yoki yuqori viskoziteli neft va gaz konlarida qo‘llaniladi.

2-jadval

Gorizontal burg‘ulash	
Afzalliklari	**Kamchiliklari**
Keng hududdan samarali foydalanish imkoniyatini beradi, ko‘p teshiklar orqali ko‘proq neft yoki gaz olish mumkin.	Qazib olish jarayoni yanada murakkab va qimmat, texnik xizmat ko‘rsatish va monitoring talab qilinadi.

Suv osti burg‘ulash texnologiyasi - dengiz yoki okean bo‘ylari bo‘yida joylashgan neft va gaz konlaridan resurslarni olish uchun ishlatiladi. Bu usulda, maxsus burg‘ulash platformalari va qazib olish uskunalari yordamida suv ostidagi konlardan neft yoki gaz chiqariladi. Suv osti burg‘ulash texnologiyasi dunyo bo‘ylab samarali qo‘llanilmoqda.

3-jadval

Suv osti burg‘ulash texnologiyasi	
Afzalliklari	**Kamchiliklari**
Dengiz yoki okean bo‘yidagi konlarni samarali qazib olish imkonini beradi ekologik xavfsizlik choralariga rioya qilish.	Yuqori texnologiyalar va qurilmalar talab qilinadi, ekologik xavf va xavfsizlik masalalari yuzaga kelishi mumkin.

Suv bosimi va termal texnologiyalar - Suv bosimi texnologiyasida, suyuqliklar yoki gazni yer ostiga yuborish orqali ularni sathga chiqarish jarayoni amalga oshiriladi. Ushbu usulda suv yoki bug‘ yordamida neft va gazning yuzaga chiqishi qo‘llaniladi. Bu texnologiya, ayniqsa, neftning viskozitasi yuqori bo‘lgan konlar uchun samarali hisoblanadi.

4-jadval

Suv bosimi va termal texnologiyalar	
Afzalliklari	**Kamchiliklari**
Kam bosimli konlarda samarali ishlaydi, viskozligi yuqori neftni chiqarish imkoniyatini yaratadi.	Qo‘shimcha suv resurslarini talab etadi. ekologik xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ekologik xavfsizlik va barqarorlik

Neft va gaz qazib olishning ekologik xavfi juda katta. Konlarni qazib olishda, erdan chiqarilgan neft yoki gaz atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin. Ushbu jarayonning ekologik xavfsizligini ta’minlash uchun bir qator choralar ko‘riladi. Misol uchun, qazib olish jarayonida chiqindilarni qayta ishlash, zararli gazlarni ushlab turish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kerak.

Atrof-muhitga ta’siri: Neft va gaz qazib olish atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Suv manbalarining ifloslanishi, yer yuzasining buzilishi va atmosferaga zararli gazlar chiqarilishi kabi muammolar yuzaga keladi.

Barqaror energiya resurslari: Barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan, neft va gaz qazib olishda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash va ekologik xavf-xatarlarni minimallashtirish muhimdir.

Neft va gaz sanoati dunyo iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, energetik resurslarni qazib olish va ulardan foydalanish jahonning barcha mamlakatlari uchun strategik ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda neft va gaz konlarini loyihalashda innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ushbu sohaning samaradorligini oshirishga, resurslarni optimallashtirishga, va ekologik xavflarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan, neft va gaz qazib olishda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash va ekologik xavf-xatarlarni minimallashtirish muhimdir. Yangi texnologiyalar yordamida konlarni onlayn monitoring qilish, qazib olish jarayonini boshqarish va optimallashtirish imkoniyati yaratiladi. Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlarni tahlil qilish orqali kon qazib olish jarayonining samaradorligini oshirish mumkin.

Neft va gaz sanoatidagi loyihalash jarayoni yuqori darajada murakkab bo‘lib, uning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan texnologiyalarga bog‘liqdir. Resurslarni qazib olish, ularni qayta ishlash, transport qilish va saqlash jarayonlari har biri o‘zining texnik va iqtisodiy murakkabliklariga ega. Shunday qilib, innovatsion texnologiyalar orqali bu jarayonlarni optimallashtirish, xavfsizlikni ta’minlash, va ekologik salbiy ta’sirlarni kamaytirish mumkin.

Innovatsion texnologiyalar nafaqat konlarni qazib olish jarayonini, balki butun sanoat zanjirini yaxshilashga qaratilgan. Bu texnologiyalarni joriy qilish konlarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi va shu bilan birga energetik xavfsizlikni ta’minlaydi.Neft va gaz konlarini qazib olish va loyihalash jarayoni murakkab va yuqori texnologik talablarni qo‘yadi. Har bir kon uchun mos keladigan usul va texnologiyani tanlash, uning iqtisodiy samaradorligi va ekologik xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bunday texnologiyalarni joriy qilish orqali neft va gazni samarali va barqaror ravishda qazib olish mumkin. Neft va gaz konlarini loyihalashda innovatsion texnologiyalar, qazib olish jarayonlarini samarali va xavfsiz amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Geologik tadqiqotlardan tortib, aqlli sensorlar va sun’iy intellekt texnologiyalarigacha bo‘lgan barcha innovatsiyalar konlardan resurslarni yanada samarali foydalanishga, ekologik xavfsizlikni oshirishga va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akramov B.Sh., Umedov Sh.X. «Neft qazib olish bo‘yicha ma’lumotnoma», Toshkent: «Fan va texnologiya», 2010, 368 b.

2. Akramov B.Sh., Sidiqxo‘jaev R.K. «Neft va gaz ishi asoslari»,-Toshkent: TDTU,2003, 203 b.

3. Akramov B.Sh., Haitov O.G. Neft va gaz mahsulotlarini y ig‘ish va tayyorlash. Darslik. - T.: «Ilm-Ziyo»,2003.

4. Алъкушин А.И., «Эксплуатация нефтяных и газовых скажин»,-М осква: Недра, 1989, 360 с.

5. Амиров А.Д., Овнатанов С.Т., Яшин А.С. «Капитальный ремонт нефтяных и газовых скважин», -М осква: Недра, 1975 г. 344 с.

6. Анализ состояния разработки нефтегазоконденсатного месторождения Крук и выдача рекомендаций по стабилизации добычи нефти: Отчет о НИР / ОАО «УЗЛИТИНЕФТГАЗ»;Ответсвенний исполнитель Ш ахназаров Г.А.-Ташкент, 2009.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14834008

ОЗОНОТЕРАПИЯ В КОМПЛЕКСНОМ ЛЕЧЕНИИ ГЕРПЕТИЧЕСКИХ КЕРАТИТОВ

К.м.н. доцент, **Бобобев С.А**
заведующей кафедрой офтальмологии Самаркандского медицинского университета

Актуальность проблемы. Герпетическая инфекция является одной из наиболее распространенных скрыто протекающих вирусных инфекций. Как признано во всем мире, вирус герпеса является наиболее частой причиной поражения роговицы (Каспаров А.А., 1994; Майчук Ю.Ф., 2000; Falcon M.G., 1987; Martines MJ. et al., 1997; Sharma A., Shimeld C., 1997 и др.). Герпес роговицы среди взрослых по разным источникам составляет 20-75 %, а среди детей 70-80 % от числа всех воспалительных заболеваний роговицы (Акберова С.И., 1999; Chong E.M. et al., 2004). Общее число больных герпетическим кератитом в нашей стране ежегодно превосходит 300.000 (Каспаров А.А., 1994; Майчук Ю.Ф., 1997). Рецидивы заболевания наблюдаются у 33 % больных после перенесенного впервые герпетического кератита, вероятность повторных обострений после первого рецидива достигает 50 % (Каспаров А.А., 1994, 2004). В структуре слепоты вследствие поражения роговицы (так называемой роговичной или корнеальной слепоты) герпетические кератиты прочно занимают первое место (Каспаров А.А., 2002,2004; Майчук Ю.Ф. с соавт. 1990). Отличаясь тяжелым рецидивирующим течением, герпетические кератиты нередко приводят к значительному нарушению зрительных функций, длительной временной или стойкой утрате трудоспособности. Широкое распространение, рецидивирующее течение, неблагоприятные исходы герпетического кератита заставляют офтальмологов искать пути лечения этого заболевания. Несмотря на большое количество предложенных в последние годы противовирусных препаратов, лечение этого заболевания остается трудной задачей. Примерно в 3035 % случаев герпетического кератита отмечается резистентность к лучшим противовирусным средствам (Каспаров А.А., 1994, 2004). В связи с этим актуальным является поиск новых эффективных методов лечения герпетического кератита. В современном представлении герпетические кератиты являются системным вирусиндуцированным иммунопатологическим заболеванием (Н.С. Зайцева, 1981; А.А.Каспаров, 1994; Ю.Ф. Майчук, 1997;

Thomas J., Rouse B.T., 1997; Thomas J. M.D., 2001). При нарушении функций иммунной системы вирус может ускользать от действия иммунных факторов, причем эти нарушения может вызывать сам вирус (Покровский В.И. с соавт., 1993). В ряде случаев герпетическая инфекция принимает затяжное течение и плохо поддается традиционным методам лечения. В последнее время значительно повысился интерес к немедикаментозным средствам лечения, которые могут существенно понизить фармакологическую нагрузку на пациента, при этом активно воздействовать на патологический процесс и способствовать улучшению функционального состояния различных органов и систем (Нероев В.В. с соавт., 2003). К таким методам относится озонотерапия - современный, высокоэффективный и экономически выгодный метод лечения, характеризующийся хорошей переносимостью и малым количеством противопоказаний. Известно, что озон обладает вирицидным, бактерицидным, иммунокорригирующим, антиоксидантным эффектом, а также способностью улучшать реологические свойства крови, микроциркуляцию, регенерацию (Бояринов Г.А. с соавт., 1992, 1999; Корнилаева Г.В., 1992; Зуев В.М., 1995; Давыдкин Н.Ф. с соавт., 1998; Змызгова А.В., Максимов В.А., 2003; Конторщикова К.Н., 1998, 2003, 2004; Перетяган С.П., 2003; Klug W., Knoch H.C., 1991; Riva Sanseverino E., 1991; Wells K.N. et al., 1991 и др.). Опыт применения озона в офтальмологии позволяет сделать вывод об эффективности озонотерапии при ряде глазных заболеваний (Гундорова Р.А. с соавт., 1996; Борзенок С.А. с соавт, 1998; Лапина И.М., Синелыцикова И.В., 1998; Нероев В.В. с соавт., 2003). Однако не изучены патофизиологические механизмы лечебного действия озона при герпетических кератитах в зависимости от тяжести заболевания, длительности анамнеза. Нет данных о влиянии озонотерапии на состоянии иммунологической реактивности, ПОЛ и антиоксидантной системы организма в зависимости от дозировки и кратности введения.

Цель – изучить эффективность озонотерапии у больных сгерпетическим кератитом на фоне традициональная медикаментозная противовирусная лечение.

Материал и методы. Нами было произведено лечения больных с герпетическим кератитом на базе глазного отделения многопрофильной клинике СамГМУ. Больных положили на стационар по направлению поликлиниках города Самарканд. Клиническое лечения больных проводилось за период 2024 года. В глазном отделении СамГосМу нами было обследовано 20 больных (20 глаз) с различными формами герпетического кератита. Распределение больных по полу было следующим: женщин было 12 человек (60%), мужчин – 8 (40%). Нами было зависимости от метода лечения пациенты разделены на 2 группы. 1 – группа основная 10 больных которые получили на фоне традиционные лечения

получили озонотерапия. 2 – группа 10 (10 глаз) больных которым было проведенно только традиционное медикоментозное лечения. К традиционным методам лечения герпетического кератита относилось: противовирусное лечения в виде глазных гелях «Вирган» 4 раза в день, а также общее противовирусное препараты «ацикловир 400 мг» по 1 таблетки 4 раза в течение 5 дней, антибиотики в виде глазне капли Андропс по 2 капли 4 раз в день, нетероидное противовосполательне капли Броксинак 1 раз в день, а также корнеопротектор Корнерогел 3 раза в день, на ночь больным назначено антигистаминное препарат Диазалин. Озонотерапию больные получали на аппарате "Медозон О-1" в виде внутривенного капельного введения 1 раз в день курс лечения составила 7 дней озонированного физиологического раствора (доза озона в каждом конкретном случае подбиралась индивидуально и варьировала от 4 до 8 мг/л). А также больным закапали раствор Озона по 2 капли 4 раза в день. Всем больным проводили следующие общие офтальмологические методы обследования: визиометрию (по таблицу Головина Свцева), биомикроскопию (на аппарате ФРГ) произведенно флюресинетное диагностика роговой оболочки. Определяли чувствительность роговой оболочки методом Алгизометрия. Рефракцию роговице на кератометре.

Результаты. Эффективность лечения нами было изучено по следившем признакам: острота зрения, инфилтрт на роговой оболочки. Эпетилизация поверхнесть роговой оболочки. Улучшения чувствительность роговой оболочки, а также улучшения прозрачности прозрачности. При из учения остроты зрения у обеих групп больных была отмеченно резкое понижения зрения у обоих групп больных. Острота зрения у первое группе больных варьировала от 0,04 до 0,6 в среднем она сставила 0,1±0,04 в начале лечения через 10 дней от начало лечения она в среднем составляла 0,3 и 0,08. Через месяц она в средном состовляла 0,42 ±0,08. А у боьных которые получили только традиционное лечения острота зрения до лечения варьировала от 0,03 до 0,5 в средном она составляла 0,15 ±0,06. Через 10 дней от начло лечения она в среднем составляла 0,28±0,08. Через месяц от начало лечения она в среднем составила 0,35±0,08-0,07. Улучшения остроты зрения на наш взгляд видимо связанно с уменьшением отека роговой оболочки, а также улучшения прозрачности прозрачность роговицы. При применения озонотерапия острота зрения по сравнению с больным которые не получили озонотерапия несколько лучше, это видимо связано с улучшением питания роговой оболочки за счет оксегенации Показатели исходной остроты зрения у больных отличались значительной вариабельностью, что свидетельствовало о различной степени вовлечения в патологический процесс роговицы. Отмечалось достоверное улучшение остроты зрения в группе

больных с герпетическим кератитом, получавших традиционное консервативное лечение а также группа больных получившиеся традиционые медикаментозное лечения в сочетание озонотерапия. Однако надо отметит что этот показатель лучше сохронается и дольго держится у групп больных получившие озонотерапия. Начальные признаки эпителизации у больных получившие озонотерапия начиналось с 7 го дня от начало лечения и она составила у 6 больных (60%). Через 10 дней эпетелизация у 4 больных (40%). Средний срок эпителизации роговицы больных составил 9,15 дней. Эффективность лечения оценена так: полное выздоровление - у 7 больных (70%), улучшение - у 3 (30%). Начальные признаки эпителизации роговицы у больных которые получили традиционная медикаментозная лечения в течение первой недели наблюдали у 4 больных (40%), на 2-й недели, у 4 (40%) – на 3-й недели у 2 больных (20%) лечения. Средний срок полной эпителизации роговицы – 14,2 дня. Эффективность лечения оценена следующим образом: выздоровление у 4 больных (40%), улучшение – у 6 больных (60%). Нами было изучено срок восстановления чувствительность роговой оболочки методом алгизометрия.

Было установлено восстановления чусвительность у 1 группе больных на 10 день и в среднем она составила 15 дней. Больные 2 группы начальные признаки чувствительности роговой оболочки появилось с 15 го дня и в среднем составила 20 дней. Улучшения чувствительности роговой оболочки при использования озона терапии по сравнением с традициоим медикаментозным терапии на наш взгляд связанно с рассасыванием инфильтрата и отека роговой оболочки который приводить к освобождения нервной окончании за счет ослабления сдавления последнего. Инфильраты на роговой оболочки начали рассасывается у больных 1ой группы с 5 го дня и заканчивались на 20 день. И среднем составляла 15±0,08. У больных 2ой группы начало рассасывания инфильтрата было на 8 день и длилось до месяца и в среднем составила 21 ±0,08 день. Быстрое рассасывания инфильтрата при использования озонотерапии видимо связанно с атомарном кислородном которое имеется в составе озона и является сильным окислителом, обладающим противовосполительным, анитибактериальным, антивирусным эффектом. Таким образом, достигнутый эффект после сочетанного применения консервативного лечения с озонотерапией сохраняется более 6 мес. Применение озонотерапии усиливает эффект консервативного лечения, способствуя более быстрому рассасыванию инфильтрата на роговице.

Заключение. Комплексное применение традиционного медикаментозного лечения герпетического кератита в сочетании с озонотерапией способствует повышению эффективности лечения, улучшению клинических показателей и отсутствию рецидивов заболевания более продолжительный срок по сравнению со стандартной консервативной терапией.

Список литературы:

1. Кадирова А, Юсупов А, Бобоев С. Интраокулярная коррекция миопии высокой степени. *Каталог монографий*. 2023;(1):1-104.
2. Юсупов АА, Хамракулов СБ, Бобоев СА. КОРРЕКЦИЯ ВРОЖДЕННОЙ АНИЗОМЕТРОПИЧЕСКОЙ МИОПИИ ВЫСОКОЙ СТЕПЕНИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФАКИЧНЫХ ИНТРАОКУЛЯРНЫХ ЛИНЗ. *Advanced Ophthalmology*. 2023;1(1):187-190. doi:10.57231/j.ao.2023.1.1.044
3. Абдурахманович БС, Абдуазизович ЮА. МИКРОИМПУЛЬСНАЯ ЛАЗЕРНАЯ ЦИКЛОФОТОКОАГУЛЯЦИЯ В ЛЕЧЕНИИ РЕФРАКТЕРНОЙ ГЛАУКОМЫ. *Advanced Ophthalmology*. Published online April 19, 2023. Accessed February 2, 2025. https://journals.scinnovations.uz/index.php/ao/article/view/536
4. А.т А, Ж.а Р, А.а Ю, И.н Я. ОЦЕНКА ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ С ДИАБЕТИЧЕСКОЙ РЕТИНОПАТИЕЙ В ГОРОДЕ САМАРКАНД. *Экономика и социум*. 2024;(4-1 (119)):758-761.
5. Бабаев СА, Кадирова АМ, Хамракулов СБ. ПРИМЕНЕНИЕ ЗАДНЕКАМЕРНЫХ ФАКИЧНЫХ ИОЛ ПРИ КОРРЕКЦИИ МИОПИИ ВЫСОКОЙ СТЕПЕНИ. *GOLDEN BRAIN*. 2024;2(1):329-335.
6. Абдурахманович БС, Муратовна КА. РЕЗУЛЬТАТЫ ЛЕНСЭКТОМИИ В ЛЕЧЕНИИ БОЛЬНЫХ С ПЕРВИЧНОЙ ЗАКРЫТОУГОЛЬНОЙ ГЛАУКОМОЙ. *Advanced Ophthalmology*. Published online April 19, 2023. Accessed February 2, 2025. https://journals.scinnovations.uz/index.php/ao/article/view/535
7. З ЖД, А БС. РЕЗУЛЬТАТЫ ОЦЕНКИ УРОВНЯ ЭНДОТЕЛИНА-1 И Д-ДИМЕРОВ В СЛЕЗНОЙ ЖИДКОСТИ У ПАЦИЕНТОВ С АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИЕЙ. *SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES*. 2024;3(3):300-307.
8. З ЖД, А БС. РЕЗУЛЬТАТЫ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ КОМПЛЕКСНОГО ЛЕЧЕНИЯ У ПАЦИЕНТОВ С 3-4 СТАДИЯМИ ГИПЕРТОНИЧЕСКОЙ АНГИОРЕТИНОПАТИИ. *SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES*. 2024;3(3):308-315.
9. Юсупов А, Василенко А, Юсупова Н. Результаты хирургической коррекции высокой анизометропии у больных с косоглазием. *Журнал проблемы биологии и медицины*. 2018;(4 (104)):135-136.
10. Жалалова Д, Норматова Н, Бобоев С. Фенофибраты в лечении диабетической офтальмопатии. *Каталог монографий*. 2023;(1):2-120.

11. Косимов РЭ, Бобоев СА, Кадирова АМ. ХИРУРГИЧЕСКОЕ ЛЕЧЕНИЕ ВТОРИЧНОГО РАСХОДЯЩЕГОСЯ КОСОГЛАЗИЯ У ДЕТЕЙ. *Advanced Ophthalmology*. 2023;1(1):128-131. doi:10.57231/j.ao.2023.1.1.030
12. Abdurakhmanovich BS, Botirovich KS, Sadullaevich RS. CORRECTION OF ANISOMETROPIA BY PHAKIC INTRAOCULAR LENSES IN PATIENTS WITH CONGENITAL MYOPIA. *World Bulletin of Public Health*. 2024;33:98-100.
13. S.A.Boboev, Boboev SS, Khamrakulov SB, Abdullaeva DA. EFFICACY AND SAFETY OF DIODE-LASER TRANSSCLERAL CYCLOPHOTOCOAGULATION IN THE TREATMENT OF REFRACTORY GLAUCOMA. *World Bulletin of Public Health*. 2022;10:35-37.
14. S.a B, S.s B, S K, D.r A. Micropulse Transscleral Cyclophotocoagulation in Combination with Anti-Vegf Therapy in Patients with Neovascular Glaucoma. *International Journal of Alternative and Contemporary Therapy*. 2024;2(5):149-155.
15. Tolibovich AA, Alimjanovich RJ, Abduazizovich YA, Shavkatjonovna XM. OFTALMOLOGIK YORDAM XOLATI VA UNI DIABETIK RETINOPATIYA BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA TAKOMILLASHTIRISH (ADABIYOT SHARHI). *JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE*. 2023;8(4). Accessed February 2, 2025. https://tadqiqot.uz/index.php/biomedicine/article/view/8258
16. Kadirova A, Boboev S, Khamidova F, Sobirova D, Khamrakulov S. PERIPHERAL PREVENTIVE LASER COAGULATION OF THE RETINA IN PATIENTS WITH HIGH DEGREE MYOPIA. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*. 2023;10(2S):3932-3940. doi:10.17762/sfs.v10i2S.1716
17. Erkinovich KR. SURGICAL TREATMENT OF JOINT HORIZONTAL STRABISMUS. *World Bulletin of Public Health*. 2022;10:173-178.

TABLE OF CONTENTS

7
Safarboyeva, G. I. qizi . (2025). GIDROTEXNIKA INSHOOTLARDAGI AVARIYALAR VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR (SARDOBA MISOLIDA). Educational research in universal sciences, 4(2), 38–44. https://doi.org/10.5281/zenodo.14782787
8
Teshaboyev, O., & Rasulov, S. (2025). POPULARIZING THE USE OF UNMANNED AERIAL VEHICLES IN AGRICULTURE IN UZBEKISTAN. Innovative Development in Educational Activities, 4(2), 45–52. https://doi.org/10.5281/zenodo.14782803
9
Soliyev, M. A. o'g'li ., Soliyev, D. Q., & Soliyev, A. Q. (2025). REVMATOID ARTRIT DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASHNING AYRIM JIHATLARINI O'RGANISH. Educational research in universal sciences, 4(2), 53–55. https://doi.org/10.5281/zenodo.14782815
10
Khojimatov, I. T. o'g'li . (2025). SCIENTIFIC ACTIVITIES OF SCIENTISTS ON THERMOELECTRIC GENERATORS. Innovative Development in Educational Activities, 4(2), 56–61. https://doi.org/10.5281/zenodo.14782829
11
Буронов, Ш., Аминова, М. Ф., & Дустёрова, М. К. (2025). X-PCA И ИК-СПЕКТРАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СОЕДИНЕНИЯ CaTiO3. Educational research in universal sciences, 4(2), 62–65. https://doi.org/10.5281/zenodo.14782891
12
Madrimova, A. G., & Sultanova, I. B. (2025). OROLBO'YI AHOLISINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI. Educational research in universal sciences, 4(2), 66–69. https://doi.org/10.5281/zenodo.14782905
13
Abdiazizov, A. A. o'g'li . (2025). QAZISH LAHIMLARIDAGI SELIKLARNING USTIVORLIGI BAHOLASHNING ASOSIY GEOMEXANIK USULLARI TAHLILI. Educational research in universal sciences, 4(2), 70–77. https://doi.org/10.5281/zenodo.14782944
14
Qobilov, B. Q. (2025). CHIGITLI PAXTA XOM ASHYOSINI QABUL QILISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH. Educational research in universal sciences, 4(2), 78–82. https://doi.org/10.5281/zenodo.14782958

15
Jo'rayev, F. I. (2025). AYLANMA HARAKAT DINAMIKASIDAN MASALALAR YECHISH METODIKASI. Educational research in universal sciences, 4(2), 83–88. https://doi.org/10.5281/zenodo.14782967
16
Djuraeva, Z. A., & Daminov, A. T. (2025). INNOVATIVE APPROACH TO ANALYSISBONE STRENGTH: RADIOFREQUENCY ECHOGRAPHIC MULTISPECTROMETRY. Educational Research in Universal Sciences, 4(2), 89–101. https://doi.org/10.5281/zenodo.14782978
17
Mustafakulov, I. B., Djurayeva, Z. A., & Xaitov, A. A. (2025). QANDLI DIABETI BOR BO'LGAN PARAPROTEZLI QAYTALANUVCHI VENTRAL CHURRALARINING SABABLARI VA XIRURGIK DAVOLASH USULINI TANLASH. Educational research in universal sciences, 4(2), 102–116. https://doi.org/10.5281/zenodo.14782995
18
Negmatova, G. S., Iskandarova, F., & Baxronova, C. (2025). ON THE ISSUE OF STANDARDIZATION OF OSTEODENSITOMETRY RESULTS AND INTERPRETATION. Educational Research in Universal Sciences, 4(2), 117–127. https://doi.org/10.5281/zenodo.14783024
19
Джураева, З. А., Омонтошев, Д. Д. угли ., Хазратов, Ш. И. угли ., & Кушбаков, Н. Ш. угли . (2025). ОБЗОР ПЛЮСОВ И НЮАНСОВ ПРЕПАРАТОВ СУЛЬФОНИЛМОЧЕВИНЫ. Educational research in universal sciences, 4(2), 128–133. https://doi.org/10.5281/zenodo.14783038
20
Djuraeva, Z. A., Muzaffarova, D. M. qizi ., Xazratqulova, S. A., Baxtiyorova, Y. S. qizi ., & Jo'rayeva, B. J. qizi . (2025). OSTEODENSIOTOMETRY AN INNOVATIVE APPROACH TO OSTEOPOROSIS DIAGNOSTICS. Educational Research in Universal Sciences, 4(2), 134–144. https://doi.org/10.5281/zenodo.14783051
21
Джураева, З. А., Пулатов, Ф. Ш. угли ., Мейлиев, И. А. угли ., & Унгбоев, А. С. угли . (2025). ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НА ПОСТПРАНДИАЛЬНУЮ ГЛИКЕМИЮ ПРИ ГЕСТАЦИОННОМ ДИАБЕТЕ. Educational research in universal sciences, 4(2), 145–149. https://doi.org/10.5281/zenodo.14783063

22
Исламов, К. С. (2025). ЕР ҚАЪРИДАН ФОЙДАЛИ ҚАЗИЛМАЛАРНИ ҚАЗИБ ОЛИШНИ ЭКОЛОГИК ТАЪСИРИ ВА УНИ СОЛИҚЛАР ОРҚАЛИ ТАРТИБГА СОЛИШ. Educational research in universal sciences, 4(2), 150–153. https://doi.org/10.5281/zenodo.14788483
23
Esanova, N. F., Suyarkulov, Y. B., & Akhatova, G. S. kizi . (2025). DIFFERENT APPROACHES TO LEARNING MATHEMATICS. Educational Research in Universal Sciences, 4(2), 154–157. https://doi.org/10.5281/zenodo.14833927
24
Esanova, N. F., Suyarkulov, Y. B., & Akhatova, G. S. kizi . (2025). THE RISE OF AI: TRANSFORMING TECHNOLOGY AND THE FUTURE. Educational Research in Universal Sciences, 4(2), 158–160. https://doi.org/10.5281/zenodo.14833954
25
Telmanova, M. B. qizi . (2025). TEMIRGA ISHLOV BERISH: PICHOQCHILIK SAN'ATI. Educational research in universal sciences, 4(2), 161–166. https://doi.org/10.5281/zenodo.14833970
26
Omonov, S. J. o'g'li ., & Norqulov, S. S. o'g'li . (2025). NEFT VA GAZ KONLARINI QAZIB OLISH VA LOYIHALASHTIRISH. Educational research in universal sciences, 4(2), 167–173. https://doi.org/10.5281/zenodo.14833993
27
Бобобев, С. А. (2025). ОЗОНОТЕРАПИЯ В КОМПЛЕКСНОМ ЛЕЧЕНИИ ГЕРПЕТИЧЕСКИХ КЕРАТИТОВ. Educational research in universal sciences, 4(2), 174–179. https://doi.org/10.5281/zenodo.14834008